

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 4

M 92

MUXAMMEDOVA ZIOLA MURODOVNA

SO‘Z STRUKTURASINING MORFEMALAR ASOSIDAGI
TAHLILI
(hozirgi ingliz va o‘zbek tillari misolida)

5A120102 - Lingvistika (ingliz tili)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Ahrorov H.

SAMARQAND – 2016

M U N D A R I J A

KIRISH	3
I BOB SO‘Z SEMANTIK STRUKTURASINING O‘ZGARISHI	7
1.1 So‘z strukturasining lingvistik tabiati tahlili.....	7
1.2 So‘z ma’nosining taraqqiyoti tahlili	11
1.3 Semantik strukturaning leksik tahlili	27
I bob bo‘yicha xulosa.....	53
II BOB INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z STRUKTURASINING SISTEM AHLILI	55
2.1 Leksik sathning rivojlanishida sodda so‘zlar strukturasida	56
2.2 Konversiya usulining so‘z strukturasiga ta’siri	59
2.3 Leksik sathning rivojlanishida qo‘shma so‘zlar strukturasida.....	64
II bob bo‘yicha xulosa.....	69
III BOB INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z STRUKTURASINING O‘ZAK VA AFFIKSAL MORFEMALAR ASOSIDAGI SISTEM TAHLILIDA BO‘G‘INNING AHAMIYATI	71
3.1 O‘zbek tilida bir bo‘g‘inli so‘zlarning tahlili.....	71
3.2 Ingliz va o‘zbek tillari so‘z tuzilishida bo‘g‘inning ahamiyati.....	74
3.3 Hozirgi o‘zbek tilida bir bo‘g‘inli so‘zlarning ko‘makchi fe’lga aylanish jarayoni tahlili.....	75
III bob bo‘yicha xulosa.....	77
UMUMIY XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	82

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o'z taraqqiyot yo'lini tanlashi jamiyat oldiga ulkan vazifalarni belgilab berdi. Bu ma'noda ilm-fan tillarni muvaffaqiyatli o'rganishda ham, ta'limni rivojlantirish hamda umuman kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ham, eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroridan kelib chiqib, mamlakatda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlarini hisobga olib, chet tillarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy ishlarga keng e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, "Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik?" degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda "Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralami egallashimish kerak?" degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim" [1,7].

XXI asr tilshunoslik fani til birliklarini o'rganishga integrasiyalashgan yondashuv doirasida lingvistik muammolarni kompleks tadqiq etilishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy anglistika ingliz tili grammatik strukturasini rivojlanish tarixini yoritish borasida ham e'tiborga molik darajada to'plangan tajribaga ega. Bu sohada tugatilgan mukammal darajada bo'lmasada, jiddiy tadqiqotlar, jumladan, ingliz tilining leksikologiyasi rivoji tarixiga oid izlanishlar, mavjud. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, ta'kidlash lozimki, bu

borada zamonaviy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar tamoyillari rivoji bilan bog'liq bir qator muammolar yechilmay qolayotganligi ayon bo'lib qoldi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi yanada yirik leksikologik strukturalarni hosil qilishda til birliklarining sistem xossalari qo'llanish imkoniyatlarini va nomenklaturasi rivoji tabiatini yoritib berishning keskin ehtiyoji bilan belgilanadi. Ingliz va o'zbek tillarida so'z strukturasi tipologiyasini o'rganish muhimdir, zero, busiz ingliz va o'zbek tilida kechayotgan jarayonlar va tamoyillar, valentlilikning roli to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin emas.

Bunda bir tomondan, uning grammatik xossalari, muayyan so'z turkumi, grammatik kategoriyalarni ifodalovchi shakllari mavjudligi, gap bo'lagi sifatidagi vazifasi va boshqalar bilan, ikkinchi tomondan – uning ma'no strukturasi kiruvchi mazmun tipi va xarakteri bilan belgilanadi. Tildagi so'z strukturasi hosil qilinishi jarayonini o'rganish uchun, so'zning asosiy til birligi sifatida ma'lum xususiyatlaridan tashqari, yana bir muhim xossa – nutq zanjirida boshqa so'zlar bilan tanlagan holda birikish imkoniyati, ya'ni leksik valentlilikni ham inobatga olish muhimdir. Bunda valentlilikning birikish xususiyatiga munosabati imkoniyatning amalga oshishga bo'lgan munosabati sifatida qaralmog'i lozim.

Tildan tashqari omillar ta'siri va konseptual qadriyatlarning o'zgarishi, shuningdek, kommunikativ intensiya (til strukturasi faollashadigan) rivoji bilan bog'liq masalalarni o'rganish, lingvistlar qiziqishining strukturalarni o'rganishdan ko'ra lisoniy unsurlarning kognitiv funksiyalarini o'rganishga qaratilgani bilan ham yanada dolzarbdir.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Tadqiqot ob'yektini ingliz va o'zbek tillarida so'z strukturasi tashkil etadi. Ishda faktik til materiali sifatida ingliz va o'zbek tillarida yozilgan badiiy adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida so'z strukturasi shakllanishining grammatik kategoriyalarini

o'rganishdan iborat bo'lib, faktik til materiali tahlili jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

- so'z strukturasi muammolarining hozirgi tilshunoslikda o'rganilishi holatini tahlil qilish;
- har ikki tilda ham so'z strukturasi bilan bog'liq bo'lgan morfologik vositalarning qisqacha tavsifini berish;
- so'z strukturasi hodisalari bilan bog'liq masalarni yoritish;
- so'z strukturasi ilmiy maqomini asoslash.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotimizda so'z strukturasi o'rganish jarayonida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- so'z strukturasi noqarindosh – ingliz va o'zbek tillari materialida birinchi bor tipologik reja asosida o'rganildi;
- so'z strukturasi mazmuniy jihatlarini o'rganishda kognitiv – pragmatik qoidalarga ham o'rni bilan murojaat etildi;
- so'z strukturasi jumlasiga qo'shma so'zlar ham qo'shildi;
- so'z strukturasi o'rganish nafaqat u orqali ifodalanayotgan ma'noni tushunish uchun, balki so'z tahlili haqidagi tasavvurimizni kengaytirish uchun ham xizmat qilishi ilmiy asoslandi;
- ingliz va o'zbek tillarida so'z strukturasi, semantik va funksional o'ziga xosliklarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ingliz va o'zbek tillarida so'z strukturasi, semantik va funksional o'ziga xosliklarni tadqiq qilishdan iborat. Tadqiqot predmeti sifatida ishning imkoniyatidan kelib chiqib tilda so'z strukturasi, ingliz va o'zbek tillarida semantik-funksional xususiyatlari, shuningdek, ularning leksikologik nuqtai nazaridan rivojlanishi belgilandi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Turli tipdagi so'z strukturasi, tarkibi va funksional xususiyatlari zamonaviy tilshunoslik fanida Apresyan Yu.D, Levkovskaya K.A., Droshevski V., Xrakovskiy V.S., Kondakov N.I., Marchand H., Balli Sh., Litvin F.A. kabi olimlar tomonidan xususiy muammo sifatida keng ishlangan.

Soʻzlar strukturasi va ularning lugʻaviy-maʼnoviy xususiyatlari E.Vyuster, X.Felber, A.Ellis, J.Rayt, K.Brunner, E.Partridj, S.A.Chaplogin, T.L.Kandelaki, G.O.Vinokur, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, I.V.Arnold, B.A.Ilish, M.M.Makovskiy va boshqa qator olimlarning xizmatlari ingliz tilshunosligining shakllanishi, taraqqiy etishiga xizmat qilgan boʻlsa, oʻzbek tilshunosligida A.Gʻulomov, I.Rasulov, R.Qoʻngʻirov, X.Doniyorov, Sh.Rahmatullaev, H.Jamolxonov, A.Hojiev kabilarning ishlari katta ahamiyat kasb etdi.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz strukturasi doir ishlar yuzasidan alohida kitoblar mavjud boʻlsa-da, boshqa sohalar yuzasidan yirik monografiyalarni yaratish tilshunoslar oldiga qoʻyilgan navbatdagi vazifa boʻlib qolmoqda.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotning metodologik asosi boʻlib Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ijtimoiy va til bunyodkorligi sohasiga oid asarlari, jahon tilshunosligida Apresyan Yu.D, Levkovskaya K.A., Droshevski V., Xrakovskiy V.S., Kondakov N.I., Marchand H., Balli Sh., Litvin F.A. kabi olimlarning fundamental asarlari xizmat qildi. Dissertatsiyaning metodologik asosini borliqning eng muhim uzvlaridan biri boʻlgan til tizimi va uni tashkil etuvchi unsurlarning doimiy dialektik taraqqiyotda ekanligini aks ettiruvchi falsafiy qarashlar, til va nutq hodisalarini izchil farqlashga asoslangan sistem-struktur tavsifga doir ilmiy-nazariy qarashlar, til birliklarining komponent va qiyosiy-tipologik tavsiflash usullari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti arab tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida 17-may 2016-yil 14-majlisida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan. Tadqiqot mavzusi yuzasidan toʻrtta ilmiy maqola chop etildi va SamDCHTI talabalarining anʼanaviy ilmiy konferensiyasida (2016-y.) maʼruza qilindi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, jami 85 betdan tashkil topgan.

I BOB

SO‘Z SEMANTIK STRUKTURASINING O‘ZGARISHI

1.1 So‘z strukturasi lingvistik tabiati tahlili

So‘z tilimiz sistemasining eng muhim va markaziy birligi ekanligi shubhasizdir. Uning til birliklarining boshqalaridan farqli jihati birinchi navbatda integrativ xususiyatida ko‘rinadi [19,53]. Bu juda muhimdir. Chunki u fonema, morfema kabi til birliklarining qo‘llanish ob‘yekti sanaladi. Biroq bu o‘rinda shuni ham aytish kerakki, so‘z muammosi tilshunoslar uchun antik tilshunoslik davridan boshlab jumboqli bo‘lib keldi va bugungi tilshunosligimizda ham shunday bo‘lib qolmoqda.

Darhaqiqat, so‘zning lingvistik tabiati o‘ta murakkabdir. Uning nafaqat semantik jihatlari, balki formal – struktur jihatlari ham hozirgacha tadqiqatlab ekanligi sir emas. To‘g‘ri, so‘zning ma‘no ifodasi masalalari bilan leksikologiya, tuzilishiga doir masalalar bilan morfologiya shug‘ullanib keldi va bu sohalarda ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Buni alohida ta’kidlamok darkor. Biroq tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davriga kelib so‘z va uning tuzilishi bilan bog‘liq sintaktik muammolar ham tadqiqotlarimiz kun tartibidan o‘rin ola boshladi va buning natijasi o‘laroq, „so‘z sintaksisi” tushunchasi vujudga keldi.

So‘z sintaksisi tushunchasining ilmiy asoslanishi, asosan, yasama so‘zlar materialida o‘z ifodasini topdi. Chunki yasama so‘zlar leksik derivatsiya mahsuli bo‘lib, bunda ularning ichki strukturasi muhim omil sifatida xizmat qiladi. Sodda qilib aytganda, yasama so‘zning ichki strukturasi uning morfologik jihatdan tuzilishini taqozo etadi [11,243]. Masala tavsifiga morfologik nuqtai nazardan yondashilganda yasovchi formant bilan so‘z yasalishi asosi muhim ahamiyat kasb etadi. Yasalish asosi yasama so‘zning mazmuniy jihatdan nimaga asoslanayotganini, yasovchi formant esa yangi ma‘no ifodasining shakllanishi uchun vosita bo‘lgan omilni ko‘rsatib turadi. Bu jarayonda, albatta, so‘z yasalishi asosi muhim mavqega ega bo‘ladi. Chunki u yangi so‘z yasalishi tayanadigan asos vazifasini bajaradi. Biroq masala

mohiyatiga derivatsion nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, yasovchi formant ustuvor ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, derivatsion jarayon ana shu vositaga asoslanadi va shu bois mazkur vosita derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri, ya'ni operator vazifasini bajaradi [18,20].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, masala tavsifiga morfologik, ya'ni an'anaviy nuqtai nazardan yondashilganda ham, so'z yasalishi jarayonida til birliklarining sintagmatik munosabat tashkil etishini kuzatamiz. Masalan, so'z yasalishi asosi bilan yasovchi formant o'rtasidagi yohud derivatsiya operandi bilan operator o'rtasidagi munosabatlarning har biri sintagmatik bog'lanish doirasida shakllanishi fikrimiz dalili bo'la oladi. Biroq bu bilan an'anaviy so'z yasalishi va leksik derivatsiya hodisalari mushtarak xarakterli ekan, degan xulosaga kelib bo'lmaydi.

Ular o'rtasida ba'zi holatlarga o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ularning operatsion salohiyatlari bir – biridan farqlanadi. Bunda leksik derivatsiya imkoniyatlari kengroq ekanini ko'ramiz. Chunki derivatsion operatsiyalar vositasida yasama so'zning ichki strukturasiga chuqurroq kirib bora olamiz va muayyan bir yasama so'z sathida sintaktik munosabat mavjudligini ko'rsatib berish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Masalan, yalovbardor so'zining ichki strukturasidagi til birliklarining sintaktik munosabatiga nazar tashlaylik. Ayni paytda, berilgan yasama so'z komponentlari o'rtasida quyidagi tarzda sintaktik munosabat shakllanganini ko'ramiz: yalov – ob'yekt, bardor – ijrochi.

Biroq ish harakati mavjud emas ekan ob'yekt bilan ijrochi bunday imkoniyatga ega bo'la olmaydi. Demak, bu o'rinda ko'tarib bormoq, olib bormoq ma'nolarini taqozo etuvchi ish harakati ob'yekt bilan ijrochi munosabati o'rtasida yashirin holda kelmoqda. Shu bois bu o'rinda ob'yekt – harakat – ijrochi ko'rinishidagi sintaktik munosabat mavjudligini dalillay olamiz.

Yasama so'zning ichki strukturasiga ahamiyat beradigan bo'lsak, aksariyat hollarda unda predikat tushunchasi o'z ifodasini topayotganini

kuzatish qiyin emas. Bu esa, o'z navbatida, yasama so'z sathidagi kichik sintaktik munosabatlarni katta sintaktik munosabatga birmuncha yaqinlashtiradi: yalovbardor – u oldinda boruvchi kishi (yoki bayroq ko'tarib yuruvchi kishi) E.S. Kubryakovaning ta'kidlashiga ko'ra, har bir yasama so'z gap bilan so'z o'rtasidagi oraliq vaziyatda turadi. U inson tajribasi va ko'nikmasida muayyan bir tushunchani anglatgani uchun so'z maqomida bo'lsa, ichki strukturasi yashirin holatda hukm ifodasini taqozo etgani uchun gapga ham nisbat qilinadi [14,135].

N.I.Kondakovning mulohazasiga ko'ra, bunday holatda inson tajribasi va ko'nikmasida so'z birlamchi sanaladimi yoki bunday imkoniyat gapga tegishlimi, degan savol tug'ulishi ham mumkin. Albatta, til sistemasining asosiy birligi sanaluvchi so'z birlamchi xususiyatga ega deb o'ylaymiz. Ammo yasama so'zlarning lingvistik tabiati, ayniqsa, ularning muayyan hukm ifodasi anglatuvchi xususiyatini hisobga oladigan bo'lsak, u holda gapning birlamchi ekanligini dalillovchi fikrga kelishimiz ham mumkin [13,96].

Shuni alohida qayd etish lozimki, yasama so'zning mazmuniy salmog'ini hukm ifodasi bilan qiyoslar ekanmiz, bunday hosila muayyan gapning transformatsion jarayonda ixcham holga keltirilgan nominativ shakli ekanligini ko'ramiz. Chunki ayni paytda nominativ ma'no ifodalashiga ko'ra gap bilan yasama so'z maksimal darajada bir – biriga yaqinlashadi.

Hatto gap orqali ifodalanadigan situatsiyani atash ma'nosi ham yasama so'zga (u muayyan hukm ifodasi bilan bog'liq bo'lgani uchun) qayd etilishi mumkin. Bizningcha, mazkur holatlarning barchasi yasama so'zning ichki strukturasi bilan bevosita bog'lanadi. Boshqacha aytganda, so'z yasalishi jarayonida vujudga keluvchi ichki struktura so'z sathida sintaktik munosabatnigina shakllantirib qolmay, bir vaqtning o'zida muayyan hukm ifodasini ham vujudga keltiradi.

Mantiqiy nuqtai nazardan hukmning ifodalanishi predikat bilan bevosita bog'lanadi. Bu esa o'z navbatida, yasama so'zning ichki strukturasi predikat maqomidagi omil yashirin holatda mavjudligini

ko'rsatadi. Aynan ana shu vaziyat yasama so'zda hukm ifodasi mavjudligini dalillashga imkon yaratadi. Masalan, tarjimon (translator) yasama so'ziga e'tibor qarataylik.

Bunda tarjima ishi bilan shug'ullanuvchi kishi – U tarjima qiladi (He/she translates) tarzida shakllanishi mumkin bo'lgan so'z birikmasi va gapning ma'nolari mavjudligini ko'ramiz. Har ikki o'rinda ham tarjima qilmoq, tarjima bilan shug'ullanmoq holatida tasavvur etilayotgan ichki predikatsiya mavjudligi izoh talab qilmaydi. Mazkur yasama so'zning ichki strukturasini tarjimonlik yoki tarjimachilik tarzida murakkablashtirganimizda ham eslatib o'tilgan ichki predikatsiya omili faoliyat ko'rsataveradi va berilgan yasama so'zlarning har biri o'ziga xos hukm ifodasi bilan bog'liqligini to'liq saqlaydi.

Yasama so'z haqida fikr bildirganlarida ba'zi tilshunoslar uning struktur holati sintagma maqomida ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan, ingliz tilshunosi G.Margand yasama so'z Sossyurning sintagma nazariyasi doirasida shakllanishini qayd etadi. Olim bu jarayonda sintagmaga xos bo'lgan aniqlovchi – aniqlanish maqomi kuzatilishiga e'tibor qaratadi [39,65].

Nazarimizda, Margandning mazkur mulohazasiga qo'shilish mumkin, zero, yasama so'z derivatsiyasi operandiga nisbatan operatorni keng ma'noda aniqlovchi sifatida talqin etish mumkin. Biroq, E.S.Kubryakovaning Margandning bu fikriga tanqidiy yondashadi va sintagma maqomidagi til birliklarida ko'pgina ikkilamchi holatdagi hamda bir morfemali yasama so'zlar nazardan chetda qolishini ta'kidlaydi [14,141].Bizningcha, bu o'rinda E.S.Kubryakovaning muloxazasi e'tirozli ko'rinadi. Chunki ikkilamchi tarzdagi yasama so'zlarda ham ichki strukturalariga ko'ra yuqorida eslatib o'tilgan (ichki predikatsiya, hukm ifodasi) holatlarning barchasi kuzatiladi. Bir morfemali yasama so'zlar esa barcha tillar uchun bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, yasama so'zning ichki strukturasini tashkil etuvchi morfemalar sintaktik munosabati

o'ziga xosligi bilan katta sintaksisning tekshiruv ob'yekti bo'lgan so'zlar munosabatidan alohida ajralib turadi. Bu haqda so'z yuritganlarida N.Turniyozov va X.Xayrullayevlar quyidagilarni qayd etadilar: „Ravshanki, so'z strukturasi komponentlari (morfemalar) sintaktik aloqalarini gap komponentlarining o'zaro munosabati bilan to'lig'icha analogik qoidalarga bo'ysunadi deb bo'lmaydi. Chunki gap til birliklari ierarxik munosabatining yuqori pog'onasini tashkil etadi. Gap tarkibidagi so'zlar munosabati har doim dinamik harakterlidir. So'z strukturasi komponentlari sintaktik munosabati esa statik maqomga ega. Biroq ularning shakllanishi prinsiplarida mushtaraklik mavjud [32,51].

Til taraqqiyoti jarayonida, uning barcha sohalarida va hodisalarida bo'lgani kabi, so'zning semantik strukturasi ham o'zgarishlar bo'ladi. Bular semantik strukturaning leksik ma'no qismiga ham, qo'shimcha ottenkalar qismiga ham taalluqlidir, lekin leksik ma'no nuqtai nazaridan bo'ladigan o'zgarish asosiy holat hisoblanadi.

1.2 So'z ma'nosining taraqqiyoti tahlili

So'z ma'nosining taraqqiyoti ko'p hollarda etimologiya bilan bog'liq bo'ladi va u orqali izohlanishi mumkin. Bunga hozirgi o'zbek tilida ko'makchi vazifasida qo'llanilayotgan bilan so'zi misol bo'lishi mumkin. Har bir mustaqil so'z nominativ ma'no anglatishi aytib o'tilgan edi. Biroq nominativ ma'no tilning evolyutsion taraqqiyoti natijasida ba'zan unutilishi ham mumkin. Nominativ ma'nosi unutilgan so'z juda tor kontekstli bo'lib, doim ma'lum bir so'z qurshovida keladi. Natijada bu so'zning leksik ma'nosi shu kontekst doirasidagina izohlanadigan bo'lib qoladi. Bunday hodisa har qanday tilda ham kuzatilishi mumkin. Tabiatdagi va jamiyatdagi o'zgarishlar paydo bo'layotgan yangi – yangi narsalar, hodisalar tilda o'z ifodasi, o'z atamasi bo'lishini talab qiladi. Shunga ko'ra tilning leksik boyligi o'sib, rivojlanib boradi. Bunday vaziyatda ikki hodisani kuzatish mumkin: 1. Yangi paydo

bo'lgan narsani yoki hodisani nomlash, atash talabi bilan yangi so'z tug'iladi.

2. Mazkur talab asosida yangi ma'no yuzaga keladi [32,58].

So'zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi faktorlarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: 1. Nolingvistik omillar. 2. Lingvistik omillar.

So'z yangi ma'nosining nolingvistik omillar asosida paydo bo'lishi nom ko'chishi asosida yangi ma'noning paydo bo'lishidir. Bunda ma'lum narsa, belgi yoki harakatning atamasi bo'lgan so'z boshqa bir narsa, belgi yoki harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi va shu yo'l bilan so'zning yangi ma'nosi vujudga keladi [31,201].

Nominatsiya tushunchasi, u qay tarzda va qay darajada vujudga kelishidan qat'i nazar, ko'p ma'nolilik tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Nominatsiya so'zning asosiy ma'nosi bilan ham, ko'chma ma'nosi bilan ham bevosita aloqador bo'lishi mumkin. Lekin ko'p paytlarda so'zning asosiy (dastlabki) ma'nosini etimologik jihatdan izohlash qiyin. Masalan, insonlarda va hayvonlarda mavjud *burun* so'zining kemaga nisbatan ishlatilishi ular o'rtasidagi tashqi belgilarning o'xshashligidir. Aslida esa kemaning burni bo'lmaydi, uning old qismining burunga o'xshashligi bu o'rinda nom ko'chishiga olib kelmoqda [13,95].

Hozirgi tilshunoslikda so'z va uning ma'nosi masalasining tadqiqi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Buni nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham kuzatamiz. Buning dalili sifatida amerikalik tilshunos

U.L.Cheyfning «Значение и структура языка», Yu.D.Apresyanning «Лексическая семантика», K.Levkovskayaning «Теория слова, принципы её построения и аспекты изучения лексического материала» kabi asarlarini ko'rsatish mumkin [13:65].

O'zbek tilshunosligida ham bu sohada salmoqli tadqiqot ishlari bajarildi. Ular jumlasiga M.Mirtojiyevning «O'zbek tilida polisemiya», «O'zbek leksikologiyasi va leksikografiyasi», X.Ne'matov, R.Rasulovlarning «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» va boshqa tadqiqotlarni kiritish mumkin

[24,67]. Mazkur ishlarda soʻz maʼnosi va uning taraqqiyoti bilan bogʻliq masalalar talqini beriladi.


Shuni ham aytish lozimki, soʻzning maʼno jihatlari talqini antik davrlardan boshlangan boʻlsa ham, bugungi kungacha munozarali va izohtalab boʻlib qolmoqda. Ehtimol, shu bois fransuz tilshunosi A.Meye otashin boʻlib, quyidagi xulosaga kelgandir: «Prinsip nuqtai nazaridan soʻz har doim izohtalabdir. Soʻzda maʼnoni qidirmaslik kerak, uni faqat soʻz real qoʻllanilganda topish mumkin» [36,154].

A.Meyening bu mulohazalari soʻzning maʼnosizligiga emas, balki maʼnoning cheksizligiga ishora qiladi, Aslida, soʻz nutqda har safar bir maʼno orqali qoʻllanilsa, tilda u koʻp maʼnolidir. Bu esa, oʻz navbatida, soʻz va uning maʼnosi masalasi muammoli ekanligini koʻrsatadi [36,203].

Soʻz tabiatining bu darajada jiddiyligi, albatta, birinchi galda uning maʼno jihatlari bilan bogʻliqdir. Shuning uchun soʻz maʼnosi xususida mulohaza yuritish ekanmiz, biz har doim uning nisbiyligini yodda tutmogʻimiz kerak.

Har qanday soʻzning ham oʻz shakli va maʼnosi (nisbiy) boʻladi. Maʼno soʻz uchun birlamchidir. Chunki maʼno inson ongida paydo boʻlgach, uni ifodalash zaruriyati bilan shakl tanlanadi. Soʻz shakli nutq tovushlari majmuasini taqozo etadi.

Soʻz maʼnosidan tashqari tushuncha ham mavjuddir. Tushuncha maʼnodan oʻz xarakteriga koʻra farq qiladi. Tushuncha bir necha soʻz vositasida ifodalanishi ham mumkin, maʼno esa har bir soʻzda kuzatiladi. Bundan tashqari, tushuncha hamma millat va hamma joyda bir xil holatda kuzatiladi. Maʼno esa milliy xarakterlidir. Biroq tushuncha maʼno orqali ifodalanadi [36,147]. “Denotat” tushunchasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Denotat deganda bir soʻz maʼnosining tushuncha orqali oʻtayotgan predmetini tushunamiz. Umumiy semantik qoidaga binoan tushunchani *signifikat* deb ataladi. Bunday jarayonni quyidagi uchburchak orqali koʻrsatish mumkin:



Soʻz denotat bilan (narsa, buyum) toʻgʻridan - toʻgʻri bogʻlanmaydi. Boshqacha qilib aytganda, soʻz bilan u atayotgan narsa va hodisa orasida bevosita bogʻliqlik yoʻq [12,56]. Chunki soʻz signifikat orqali narsa bilan bogʻlanadi. Soʻz bogʻlanayotgan narsa (hodisa) esa *denotat* deb ataladi.

Eng avval shuni aytish lozimki, soʻz tilning eng muhim birligi sanaladi, Aslida, tilning fonema, morfema kabi birliklari soʻzning ishtirokisiz yashay olmaydi. Shu bois tilshunoslik fani endigina asoslana boshlagan antik davrlardan boshlab olimlarimiz soʻz xususida mulohaza yuritib kelmoqdalar. Lekin, shunday boʻlishiga qaramay, soʻz xususida mavjud izohtalab masalalar koʻpaysa koʻpaydiki, kamaygani yoʻq.

Bu masalalarning barchasi soʻzning maʼno jihatlarini bilan bogʻlanadi. Maʼno esa, oʻz navbatida, soʻz uchun libosdir va u soʻz isteʼmolda qanchalik koʻp qoʻllanilsa, shunchalik taraqqiy etib boradi. Buning isbotini barcha tillar, shu jumladan ingliz tili materialida ham bemalol kuzata olamiz.

Soʻz maʼnosi birinchi galda tovush, aksariyat paytlarda esa tovushlar majmuasi bilan ifodalanadi. Shuning uchun mashhur tilshunos olim F.de Sossyur soʻzda ikki jihat mavjudligini – ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlar mavjud boʻlishini ilmiy asoslab bergan edi.

Soʻzning ifodalovchi jihatini tovushlarni taqozo etadi. Ifodalanuvchi jihatini esa *maʼno* tushunchasi bilan uzviy bogʻlanadi. Lekin bu bilan har bir maʼno uchun alohida tovushlar majmuasi berkitiladi, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunki omonim soʻzlarda maʼlum bir tovushlar kompleksi turli maʼnolarning ifodalovchisi boʻlishi ham mumkin. Shuning uchun maʼnoning maʼlum bir tovushlar kompleksiga berkitilishini nisbiy tushunmoq lozim.

Har qanday mustaqil soʻz maʼnosi ham oʻzining muayyan shakliga va ifodalanayotgan maʼnosi mazmuniga ega boʻladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

Soʻzlar turli xil shakllarda kelib, turlicha mazmun ifodasini berishi mumkin: a pen, a cloud, surprise, astonishment.

Soʻzlar bir xil shaklda kelib, bir xil maʼno ifodalanishi mumkin: a telegram, a wire, a sedative, a tranquilliser.

Soʻzlar shaklan bir xil, mazmunan turlicha boʻlishi mumkin: money, dough, good, grub.

Biroq bir xil maʼno ifodalab, har xil shakllarda keluvchi soʻzlar kuzatilmaydi.

Agar yuqorida keltirilgan soʻzlarni denotat tushunchasi orqali tavsif etsak quyidagicha boʻlishi mumkin:

Turli xil denotatlar va turli xil maʼno ifodalari.

Yolgʻiz denotat va yolgʻiz maʼno.

Maʼno ifodalari har xil, denotatlar esa shaklan bir xil.

Koʻrinadiki, keyingi mulohaza sathida soʻzning maʼnosi koʻchirilishi hodisasini ham kuzata olamiz. Aslida, maʼno koʻchirilishida, xususan, soʻz maʼnosining metafora hodisasi doirasida koʻchirilishida denotatlar bir xil soʻz shakli orqali ifodalanishi mumkin. Boshqacha aytganda, yagona soʻz shakli turlicha maʼnolar ifodasi uchun obʼyekt boʻla oladi. Ammo bu bir qarashda tilning nuqsonidek koʻrinadi. Chunki bunda muayyan bir belgiga meʼyoridan ortiq maʼno yuklatiladi.

Bu haqda F.A.Litvinning mulohazalari diqqatga sazovordir. Unga koʻra, koʻp maʼnolilik hodisasida tilning belgilari qonuniyati buzilishi taʼkidlanadi. Biroq mazkur buzilish tabiiy va qonuniy ekanligi ham eslatib oʻtiladi. Aslida, buning aksi boʻlganda, yaʼni har bir maʼno uchun alohida belgi tanlansa, tilning eng muhim sifatlaridan biri – tejamkorlik masalasidan voz kechishga toʻgʻri kelardi. Bu esa, oʻz navbatida, til birliklari kodining keskin koʻpayishiga olib

kelardi va buning natijasida soʻzlovchilar uchun tildan foydalanish imkoniyatlari chegaralanib qolardi [16,117].

A.A.Potebnya taʼlimotining muhimligi shundaki, tildagi forma bu faqat ifodalovchigina emas, balki ifodalanuvchi hamdir. Bunda ikki turdagi: real (mustaqil – leksik) va formal maʼnolar nazarda tutiladi.

A.A.Potebnya soʻzning real (yoki mustaqil) maʼnosida ikki turdagi, ikki xil maʼnoni – yaqindagi maʼnoni va uzoqdagi maʼnoni ajratadi.

Yaqindagi maʼno bu tilga oid boʻlib, izohli lugʻatlarda qayd etiladigan maʼno. Anigʻi, ushbu maʼno soʻzlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham – barcha uchun umumiy, tushunarli – xalqchil boʻlgan maʼnodir, real, obʼyektiv maʼnodir. Shunga koʻra oʻzaro fikr almashuvchilarda bir-birini oʻzaro tushunish, anglash jarayoni yuz beradi.

Uzoqdagi maʼno esa tilga oid boʻlmay, balki muayyan mutaxassislikka tegishli boʻlib, maxsus terminologik va predmet (ensiklopedik) lugʻatda beriladi. Anigʻi, ushbu maʼno individual - «shaxsiy» boʻlib, xususiyligi bilan – xalqchil emasligi bilan, barcha uchun bir xilda tushunarli boʻlmasligi – subyektivligi bilan ajralib turadi.

Soʻz masalasi, til va tafakkur munosabati masalasi kabilar, A.A.Potebnya taʼlimotining bosh gʻoyasi hisoblanadi, uning asarlarida markaziy oʻrinni egallaydi.

Har qanday soʻz uch elementdan: tovushdan, tushunchadan va maʼnodan tashkil topadi. Soʻz tovushsiz boʻlishi mumkin emas. Soʻzdagi tovush, -deydi A.A.Potebnya, belgi emas, balki belgining qobigʻi yoki uning formasi (shakli)dir, belgining belgisidir. Soʻz faqat tovushlar birligi boʻlmay, ayni vaqtda u tushuncha va maʼno birligidan ham iboratdir. Soʻzda tovushdan tashqari yana soʻzning ichki formasini tashuvchi, ifodalovchi maʼnoning belgisi ham mavjud. Maʼnoning belgisi simvol (ramz) boʻlib, soʻzlarni sistemaga aylantiradiki, u fikr va maʼnoni shakllantirish va uzatish qobilyatiga ega boʻladi, ammo soʻzning mazmunini hosil qilmaydi.

A.A.Potebnya soʻzning haqiqiy hayoti nutqda amalga oshishini, soʻzning maʼnosi esa faqat nutqda reallashishini taʼkidlaydi va soʻzning nutqda har gal turlicha maʼno ifodalashini qayd etadi.

A.A.Potebnya fikricha, inson fikri mazmuniga koʻra yo obraz yoki tushunchadir. Faqat soʻz fikr taraqqiyotining vositasi, obrazni tushunchaga oʻzgartirish vositasi boʻlib xizmat qiladi. [27,217].

A.A.Potebnya soʻz haqida – soʻzning ichki formasi haqida fikr yuritar ekan, uning uchun ichki forma, dastavval, soʻzning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida har qanday soʻzni tushunish uchun imkon yaratadi. Shunga koʻra ichki forma soʻzning «etimologik maʼnosi» yoki «soʻzning eng yaqin etimologik maʼnosi» sifatida qaraladi.

Umuman, A.A.Potebnya, har bir soʻzda tashqi formani, yaʼni qismlarga ajraluvchi, boʻlaklanuvchi tovushni va ichki formani – maʼnoni farqlaydi.

Xullas, A.A.Potebnya oʻzining lisoniy qarashlarida, taʼlimotida tilshunoslik fanining murakkab va muhim masalalari haqida chuqur fikr yuritib, til va tafakkurni oʻzaro bogʻliq holda oladi, ularning birini ikkinchisidan ajratmaydi. Ayni vaqtda mantiqiy va lisoniy kategoriyalarning ham oʻziga xosligini taʼkidlaydi.

Navoiy soʻz haqida fikr yuritar ekan, dastavval, mutlaqo maqsadga muvofiq, soʻzning maʼno quvvatiga katta eʼtibor qaratadi. Chunki Navoiy gʻoyalarining eng birinchi va eng qudratli poydevori, moddiy asosi soʻz ekanligi – soʻzning maʼno jihatlari ekanligi aniqdir.

Navoiy soʻzni maʼno, tushuncha tashuvchi, inson gʻoyalarini, ruhiy dunyosini ifoda etuvchi, shunga koʻra oʻzgalarga taʼsir qiluvchi kuchli vosita sifatida tushunadi va shunday tushuntiradi. U ona tilining leksik boyligi haqida oʻtkir tilshunos sifatida qimmatli fikrlar, maʼlumotlar keltiradi, semantik-funksional jihatdan forsiy tildan ustun turuvchi qator lisoniy birliklarni birma-bir sanaydi, ularni maʼno jihatdan tahlil qiladi, soʻzlarning-feʼllarning nozik maʼno farqlarini, «qirralarini» qayd etadi. Turkiy tilning soʻz qoʻllash bobida ham

o'ziga xosliklarga, ustunliklarga egaligini asoslaydi, she'riyat-baytlar orqali ishonch hosil qiladi.

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida eski o'zbek tilining imkoniyatlarini, boyligini ko'rsatish maqsadida shu tilning o'ziga xos bo'lgan 100 ta fe'lni keltiradi. Bular: *gangiramak, yadamak, qadamoq, chiqanmoq, ko'ndurmak, so'ndurmak, suqlatmoq* va hokazo.

Navoiy qayd etilgan fe'llarni semantik jihatdan tahlil qiladi, differensial-semantik metod asosida ularning ma'no umumiyliklariga, farqli belgilariga, ma'no nozikliklariga e'tibor beradi, misollar bilan asoslaydi. Omonimik va sinonimik munosabatdagi so'zlarni aniqlaydi, polisemantik so'zlarning mavjudligini qayd etadi [25,169]. Masalan, omonim so'z sifatida ot, tuz, ko'k kabi so'zlarni keltirib, ot so'zining nomism ma'nosida, hayvon ma'nosida va harakat ma'nosida qo'llanishini ta'kidlaydi. Aytilganlar Navoiyning so'z masalasiga o'ta jiddiy e'tibor bergan, o'z davrining buyuk so'zshunos-leksikolog olimi ham bo'lganidan darak beradi.

Navoiy mazkur asarida morfologiya masalasiga ham to'xtaladi, so'z yasashiga oid ayrim fikrlarni qayd etadi.

Prof. S.Usmonov va prof. A.Nurmonovlarning xabar berishicha, ushbu ishda so'z yasovchi affikslar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- chi: qushchi, xolvochi, kiyikchi, qo'ychi;
- vul: bakovul, qarovul, yasovul, jig'ovul;
- l: yasol, kabol, tunqol, sevarg'ol [25,46] va boshqalar.

Ma'lum bo'ldiki, affikslar asarda so'z yasovchi vositalar sifatida so'z tarkibida qo'llanib, yangi so'z yasash, asosan, ot yasash-shaxs otini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Alisher Navoiy morfologiyaga oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy, yetakchi so'z turkumi sifatida, maqsadga to'la muvofiq, fe'llarga murojaat qiladi. Fe'l birliklarning ma'no jihatdan, shakl va qo'llanishi jihatdan eski o'zbek adabiy tilining o'zigagina xos, ya'ni forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini, zukko tilshunos sifatida, puxta tahlil qiladi. Aniqrog'i, u

fe'llarning nisbat bilan bog'liq tomonlariga alohida e'tibor berar ekan, fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni qayd etadi.

Navoiy fe'lning orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritar ekan, ayni nisbat tushunchasi -t qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini aytadi, qator misollar keltiradi. qiyoslang: yugurt, yashurt, chiqart [36,28] va boshqalar.

So'z sermazmun bo'lib, u ko'p narsalardan dalolat q'iladi. Bir so'zning o'zini turli holatlarda turlicha talq'in q'ilish mumkin. Binobarin so'zni to'g'ri tushunish va to'g'ri ishlatish uchun uning ma'nolarini iloji boricha mukammal bilishga urinish lozim [20,64].

So'z ma'nosida fikriy mazmunni tan olish o'z-o'zidan ong va tilning mushtarakligini ta'minlay oladi. Agar a) so'z va belgining birligi tan olinmasa va b) belgini mazmunning moddiy tuzilishidan ajratsa.

Tilning ikki taraflamali tabiati va til faoliyatining mohiyatini aniqlash uchun belgi va so'zni farqlash muhimdir.

So'z va belgining mushtarak deb qarash belgini ma'no deb bilishda, ularni bir-biriga qarama-qarshi quyishda, shuningdek, belgining ma'nodan ajratish va umuman tildan chiqarib tashlanganda yuz beradi. Bunday bir taraflama yondashish belgining moddiy va ma'no (ideal) birligini tashkil etuvchi tilning qarama-qarshi dialektik xarakterini hisobga olmaslikdan kelib chiqadi.

Taniq'li tilshunos olim, professor Sh.Safarov fikriga ko'ra, "So'z shunday til fenomenidirki:

1) o'z mavjudligini ta'minlovchi moddiy shaklga ega bo'lgan holda ongning ma'lum mazmunini o'zida ifoda etadi;

2)belgi o'z ma'nosiga ko'ra tasodifiy bo'lib, prinsipial jihatdan ko'p ma'nolidir;

3) o'z ma'nosini (bir ma'noda qo'llanishini) ma'lum bir so'z bilan birikkanda, nutqda topadi. Shuning uchun ko'p ma'nolilik tushunchasini so'zga emas, ongning u yoki bu mazmunini ifodalagan holda birlik hosil qilib so'z shaklida namoyon bo'lgan belgiga nisbatan qo'llash mumkin" [30,48].

Soʻzning koʻp maʼnoligi prinsipi bir-biriga yaqin turli maʼnolarini bitta belgi orqali ifodalashga asoslanadi. Shunga koʻra, bir belgining tez-tez qoʻllanishi maʼnolarining yaqinligi va oʻzaro aloqadorligi (metonimiya) bilan izohlanadi. Ammo bu fakt soʻzning “koʻp maʼnoligi” ni asoslash emas, bitta belgi bilan turli maʼnolarning ifodalanish sabablarini aniqlash uchun kerak boʻladi. Shuning uchun bu holatda soʻz emas, belgining koʻp maʼnoliligi haqidagina gapirish mumkin. Til faoliyatiga maʼlum darajada soʻzlarning yasallishida belgining koʻp maʼnoliligini chegaralash jarayoni deb qarash mumkin. Bunday “soʻz ijodi” (soʻz hosil qilish) tilning tarixan stixiyali (tartibsiz) tarkib topgan taraqqiyoti davrida belgi maʼnolaridan birini tanlash ikoniyatini beradi.

Belgi maʼnosini tanlash hamda belgi va maʼno aloqalarini tartibga solish tildagi bunday aloqalarni chegaralash bilan bogʻliq.

Hamma gap shundaki, lingvistikada (shuningdek, semiotikaga tegishli boshqa fanlarda ham, yaʼni keng maʼnoda belgiga tegishli masalalarda) “maʼno” termini va “maʼnoli” derivati sinonim sifatida ifodalanuvchi maʼnosida qoʻllanadi. Shunga koʻra, designati (ifodalovchi) qarshi maʼnoda ishlatiladi.

Mazmun birinchi (falsafiy) maʼnoda shakl bilan korrelyatsiya qilinsa, bu korrelyatsiya terminning ikkinchi (semiotik) maʼnosiga ham tatbiq qilinadi. Boshqacha aytganda, ifodalanuvchi deganda maʼno tomonini yoki belgining mazmunini, ifodalovchi deganda, uning formal tomonini yoki shaklini tushunamiz.

Sezgi harakati subyekt (inson) biror bir predmet bilan duch kelganda yuzaga keladi, tafakkur yordamida ushbu predmet haqida tasavvur hosil boʻladi. Paydo boʻlgan tasavvur subyekt idroki doirasidan chiqib, obʼyektga aylanadi. “Shunday qilib subyektdan ajratilmagan holda tasavvur obʼyektga aylanadi va bu jarayon til yordamida amalga oshadi” [32,158].

Tilni “oraliq dunyo” sifatida tasavvur qilgan Gumboldt bizning predmet va obʼyektiv olam hodisalariga munosabatimiz bu predmetlarni xususiyatlari bilan emas, balki til orqali voqye boʻladi, degan xulosaga keladi. Gumboldt

fikricha, til tashqi olamni va ruhiyat voqyeligiga ko'chirish imkoniyatiga ega. Gumboldt tilni inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi dunyo orasida turuvchi vosita sifatiga talqin qilishi kishini hayratlantiradi.

So'z o'z tabiatiga ko'ra tilning va bir paytning o'zida nutq'ning ham juda murakkab, serq'irra va sermazmun unsuridir. Shu bois uning fonetika /fonologiya/, grammatika, leksikologiya, stilistika, frazeologiya singari tilshunoslik fanining barcha bo'limlarida o'rganilishi bejiz emas.

Agar fonetikada so'zning tovush tarkibini va u bilan bog'liq' bo'lgan muammolar, talaffuzi me'yori kabi masalalar o'rganilsa, grammatikada uning turkumlarga bo'linishi, morfologik shakllari, konkret q'o'llanilishi bilan bog'liq' bo'lgan sintaktik funksiyalarini, leksikologiyada ma'no jihatlarini – ma'noning o'zgarishi, kengayishi, torayishi, ko'chirilishi kabilarni, frazeologiyada esa ko'chma ma'noda q'o'llanilishi bilan bog'liq' masalalarni o'rganamiz.

Ko'rinadiki, so'zning yuq'orida eslatib o'tilgan tilshunoslik fanining turli sohalarida o'rganilishining asosiy sababi uning mazmunidan kelib chiq'adi, zero, bir so'zning o'zini turli holatlarda turli ma'nolarda q'o'llash mumkin [33,123]. Boshq'acha aytganda, so'z tilshunoslar uchun yechilmagan jumboq'dir [48,210].

So'zda ma'noning ifoda etilishi va u bilan bog'liq' bo'lgan omillar olim va mutafakkirlarimizni faqatgina bugun emas, balki q'adimdan q'iziq'tirib kelgan. Agar mashhur allomalardan biri Jaloliddin Rumi: «So'z – libos. Ma'no – unda yashirin asror», - degan bo'lsa, Mirzo Bedil q'alamiga mansub q'uyidagi misralar ham fikrimizga isbot bo'la oladi:

Ahli yuz donani buzgan bitta nodon shum erur,

Anglashilmas misra gar bir so'z unda mavhum erur.

Darhaqiqat, so'zning mazmuni bilan bog'liq' muammolar shu darajada ko'pki, ba'zi paytlarda biz ularni so'z bilan izohlashga ojizlik q'ilamiz. Shu sababdan ham R.A. Budagov: «Garchi o'z ona tilimizdagi so'zlar bizga aniq' va ravshan tuyulsa-da, aslida ular tabiatan o'ta murakkab va serq'irradir», - degan edi . U yana shuni ham ta'kidlaydiki, so'zlar borliq'dagi narsa va hodisalarni

nomlaydi, ammo predmat, voq'yea-hodisalar voq'yelikda so'zlarga q'aram bo'lmagan holda mavjuddir.

So'z ma'nosida shu so'z bilan belgilanayotgan narsa va hodisalargina o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, so'zning ma'nosi deb shu so'zning ma'lum tovush va tovushlari orq'ali shakllanishi bilan biz idrok etadigan narsa va hodisalar o'rtasidagi tarixiy bog'lanishni tushunish mumkin [39,125]. Boshq'acha aytganda, kishining borliq'ni bilishi, uning ongda aks etilishi so'z ma'nosida o'z ifodasini topadi.

Har bir so'zning ma'nosi asosida borliq'dagi ma'lum bir predmet, voq'yea yoki hodisa yotadi. Buni bilishda har bir shaxs o'zining ko'p yillik hayotiy tajribasiga tayanadi. Balli Sh: «Sezish tajribasi orq'ali biz predmetni his etsak, idrok etish orq'ali uning nomini belgilaymiz», - deganida haq'li edi [8,103].

So'z tabiatining murakkabligi yana shunda ko'rinadiki, u tilning ko'p funksiyali kategoriyasiga kiradi. Shuning uchun u yoki bu so'zning ma'no xususiyatlari to'g'risida gapirar ekanmiz, uning funksiya nuq'tai nazaridan ham murakkab xarakterga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. So'z, fonema va morfemalardan farq'li o'laroq', nafaq'at sintagmatik q'ator zanjirida, balki paradigmatic q'ator doirasida ham o'z ma'nosiga va semantik vazniga egadir. Biroq' paradigmatic q'ator elementlari doirasida uning ma'nosi va funksiyalari hali umumiylik og'ushida bo'ladi.

So'z paradigmatic q'atordan sintagmatik q'atorga o'tgach, shu q'atorning ichki q'onun-q'oidalariga bo'ysungani holda, yangicha mazmun va funksiyalar kashf eta boshlaydi. Endi u, sintaktik aloq'alar maskani bo'lgan ma'lum bir gapning ajralmas tarkibiy bo'lagi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, gap tarkibida q'o'llanilayotgan so'z o'zi uchun belgilangan semantik vazifani bajaribgina q'olmay, o'zi tegishli bo'lgan morfologik kategoriya tasarrufidan chiq'ib, boshq'a bir morfologik kategoriya doirasidagi so'zlar vazifasini bajarishi ham mumkin. Masalan, sifatning asosiy vazifasi otning belgisini aniq'lash bo'lsa, otning bosh vazifasi, o'z navbatida,

predmetning nomini atash orq'ali belgilanadi. Ammo ko'p paytlarda otning fe'l, sifat funksiyasida kelishini ham kuzatamiz. Ana shuning o'zi ham so'z tabiatining g'oyat murakkabligidan dalolat beradi. Fikrimizning yanada aniq'roq' bo'lishi uchun q'uyidagi misollar tahliliga to'xtab o'taylik:

1.«Siymonko 'prik»dan o'tishning o'zi bir tomosha (O'.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*, 77).

2.Ammo o'zi yaxshi xotin (O'.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*, 119).

3.Noiloj soy bo'yidagi kolxoz choyxonasida tunashga majbur bo'ldim (O'.Usmonov. *Sirli sohil*,182).

4.Bog'-bo'ston deb mana shu yerni aytsa bo'ladi (T.Po'lat.Ichkuyov, 12).

5.To'rt xotin o'tirishib olma choy ichishdi(O'.Hoshimov.*Dunyoning ishlari*, 50).

Ko'rinadiki, birinchi gapdagi *tomosha* so'zi o'zining asosiy sintaktik funksiyasidan chiq'ib, fe'l funksiyasida, ya'ni kesim vazifasida q'o'llanilmoq'da. Ikkinchi gapdagi *xotin* so'zi ham shu singari funksiyada ishlatilgan. Qolgan har uchala misoldagi *bog'*, *olma* so'zlari sifat vazifasida q'o'llanib, *choyxona*, *bo'ston*, *choy* so'zlarini aniq'lab kelmoq'da. Boshq'acha aytganda, ayni paytda otning o'z funksiyasiga ko'ra fe'l va sifat kategoriyalariga ko'chirilganligini ko'ramiz.Taniq'li olim Sh.Balli ta'limotida bunday vaziyat funksional transpozisiya hodisasi deb nomlanadi [8,96].

Bu singari holat turli morfologik kategoriyalarga mansub so'zlar doirasida ham kuzatiladi. Masalan, harakat nomi kategoriyasiga ko'chirilgan fe'l bemalol ot funksiyasini bajaraveradi:

1. O'q'ishdan ko'ra ishlamoq'ni afzal ko'rdim.

2. Uni jerkib tashlashdan o'zini zo'rg'a tiydi (O'.Usmonov. *Sirli sohil*,170).

Qizig'i shundaki, funksional transpozisiya ta'siriga tushgan so'z ikkinchi bir morfologik kategoriyaga mansub bo'lgan so'zlarning ba'zi morfologik belgilarini q'abul q'ilishi ham mumkin. Masalan, q'uyida keltirilgan gapda fe'lning ot funksiyasini bajarishiga e'tibor beraylik:

Chigit ekmoq bobo dehq'onlarimizning asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan.

Yuq'oridagilardan tashq'ari, sifatning fe'l funksiyasida q'o'llanishi hollari ham ko'p uchraydi:

1. *Muncha shirin bu bola (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 77).*

2. *Aytishga oson. Hammasi ishlik odamlar (O'.Usmonov.Sirli sohil,171).*

Shuni alohida q'ayd etish lozimki, til unsurlarining bir morfologik kategoriyadan ikkinchisiga o'tishi va u o'sha kategoriyaga mansub unsurlarning funksiyalarini bajarishi faq'at sintagmatik q'atordagina yuz beradi. Paradigmatik q'atorda esa ular o'zlarining tub morfologik mazmunini saq'lab q'oladi. Shu bois tilning har bir birligi mazmuni doirasining kengligini nutq' jarayonida, ya'ni sintagmatik q'atorda u ikkinchi birlik bilan munosabatga kirishgandagina aniq'roq' his etish mumkin. Chunki so'z sintagmatik q'ator zanjirida, o'zining tub leksik ma'nosidan tashq'ari, boshq'a ma'nolarda ham q'o'llanila oladi.

M.M.Makovskiy ta'kidlaganidek, bu jarayonda til sistemasining ayrim q'ismlarida, va hatto, butun bir sistema doirasida ham til elementlarining guruhlarga va yana q'ayta guruhlarga bo'linishi sabablari hamda uning oq'ibatini o'rganishda, sistema tarkibiga nimanidir q'o'shish yoki undan nimanidir olib tashlash va natijada sistema hajmining kengayishi yoki torayishi sabablarini o'rganishda ham til vositalarini erkin kategoriyalar tarzida talq'in etadigan har bir tadq'iq'ot muhim ahamiyat kasb etadi [18,39].

Amerika tilshunoslari til strukturasi nazariyasini dastlabki o'rinda gap strukturasi va uning vositasida yetkazilayotgan axborot nuqtai nazaridan shakllantirdilar va o'rgandilar.

Binobarin, Z. Harris [2: 237-255] gap strukturasi nazariy jihatdan muhim bo'lgan quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etadi:

so'zlarning gap strukturasi o'rin olishini qat'iy nazorat qiluvchi qoidalar majmuasining mavjudligi;

o‘zaro sintaktik munosabatdagi so‘zlarning matnda qo‘llanish tartibining o‘zgarishi ehtimoli (bunday o‘zgarish matnda mavjud bo‘lgan boshqa so‘zlar ta’sirida yuzaga keladi);

axborot tashish jihatidan muhim va shu sababli matnda qo‘llanishi shart bo‘lgan ayrim so‘zlarning tushib qolishi (reduction).

Muhim xususiyat sifatida qaralayotgan bu xususiyatlarning nisbatan oddiyligi va ularning gap tavsifi uchun yetarli ekanligi inobatga olinsa, til strukturasi uning voqyeligini shartlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi hamda bu holda tilning formal tuzilishi haqida biror bir farqni olg‘a surishga hojat yo‘q.

Z.Harris har bir gap operator -argument tuzilishiga ega deb hisoblaydi. Operator vazifasini predikativ so‘zlar va bog‘lovchilar bajaradilar. Masalan, *Marry’s phoning entailed John’s arriving* «Merining qo‘ng‘irog‘i Jonning kelishiga sabab bo‘ldi» gapining strukturasi quyidagicha belgilanadi: *entailed* (phone, Marry arrive, John) va bunda *entailed* ikki argumentli (phone va arrive), phone va arrive bo‘laklari esa bir argumentni talab qilmoqda (Marry va John).

Shunday qilib, gaplarning turlariga nisbatan operatorlar argument vazifasini o‘tashi mumkin hamda aynan birgina operator o‘z argumenti sifatida turli guruhdagi so‘zlarni tanlash imkoniga ega (masalan, *John caused this* va *John’s phoning caused this* tuzilmalarini qiyoslang). Gap strukturasiidagi barcha o‘rinlar to‘ldirilishi shartligini hisobga olgan holda argument so‘zlar guruhini ajratish mumkin.

Z.Harris operatorlarni birikadigan argumentlari miqdoriga nisbatan farqlaydi va sintaktik birikish hodisasini «operator-argument» qolipi ko‘rsatkichlariga asosan o‘rganadi. Shuning bilan birgalikda olim ushbu qolipning matn bilan bog‘liq holda voqyelanishini ham qayd qiladi. Masalan, ikki o‘rinli melt «eritmoq» operatorning birinchi argumenti fire «olov, yong‘in» hamda ikkinchi argument vazifasida «house» so‘zining kelish ehtimoli unchalik kuchli emas. Lekin bu ehtimol *Fire melted a house made of snow* «yong‘in (olov) qordan yasalgan uyni eritdi» gapida kuchayadi.

Sintaktik birikishning bu tarkibdagi o'zgarishlari natijasida yangi gaplar tuzish imkoni yaratiladi va grammatikaning bu xususiyati lug'at tarkibida so'z boyligining so'z yasash hisobidan ko'payishiga o'xshab ketadi. Sintaktik birikuvning turli darajadagi ko'rinishlari miqdor jihatidan chegaralangan lug'aviy birliklar vositasida har qanday miqdordagi axborotni ifodalash imkonini beradi.

Til tizimi ifoda vositalarining qo'llanishining darajalanishi faqat shu bilan chegaralanmaydi. Lisoniy transformatsiyaning ko'pgina turlariga xos xususiyatlar u yoki bu argumentning ma'lum operator bilan birikishi imkoniyati bilan bog'liq.

Bunday birikish ehtimoli qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lum elementlarning tushib qolishi (reduksiyaga uchrashi) ehtimoli ham kuchayadi. Masalan, expect «kutmoq» operatorining ikkinchi argumenti odatda qisqartirilgan operator vositasida ifodalanadi: shunga asosan *We expect John* «Biz Jonni kutayapmiz» tuzilmasini *We expect John to be here* gapining reduksiyasi deb qarash lozim. *To be here* qismining «nollashuvi» (zeroing) natijasida hosil bo'lgan gapni *We expect their departure at 6* «Biz ularning soat 6 da jo'nashini kutayapmiz» qabilidagi to'liq gap bilan bir qatorga qo'yish imkonini beradi.

Xuddi shunday holatni *then* «o'sha paytda» operatorining quyidagi gaplar tarkibida nollashuvida ham kuzatamiz: *He took sick and then died* «U kasal bo'ldi va shundan so'ng o'ldi»- *He took sick and died* «U kasal bo'ldi va o'ldi».

Qo'llanish ehtimoli yuqori bo'lgan argumentlarning nollashuvi turli xildagi gaplar uchun xos hodisadir, lekin bu hodisa yuz berishidan qat'iy nazar gaplar o'z ma'no xususiyatlarini mumkin qadar to'liq saqlaydilar.

Ushbu hodisa matn tarkibida qo'llanuvchi metaoperatorlarning tushib qolishida ham kuzatiladi. Bu turdagi operatorlarning (*metatextual operators*) ma'nosi asosan matn tarkibida namoyon bo'ladi. Masalan, *He likes Mozart and Bakh, but I prefer the latter* «Unga Motsart va Bax yoqadi, lekin men keyingisini ma'qul ko'raman» gapida so'z tartibi vositasida ifodalanyotgan axborot muhimdir.

Olmoshlar va ayrim paytlarda, bog'lovchilar matnning turli o'rinlarida qo'llanila-yotgan birliklarning yagona referentga bog'liqligiga ishora qilishlari ma'lum. Bunday hodisalarning asosiy xususiyati shundaki, metatil axboroti hyech qanday grammatik vositasiz ifodalanishi mumkin. Bu esa lisondagi tejamkorlikning bir ko'rinishidir.

Masalan, *The man whom I saw left* «Men ko'rgan odam ketdi» gapini quyidagi transformalar hosilasi deb qarash mumkin.

The man left – «Odam ketdi»

I saw the man – «Men odamni ko'rdim»

Ikkinchi gapda aynan birinchi gapdagi shaxs nazarda tutiladi.

Xullas, til tizimining bu yo'sindagi tahlili asosida tilni dinamik hodisa sifatida talqin qilish harakati yotadi. Til tizimi tahliliga bunday yondashuv ushbu tizimning ma'lum bosqichdagi taraqqiyot holatini o'rganish uchun muhimdir.

1.3.Semantik strukturaning leksik tahlili

Semantik strukturaning leksik ma'no nuqtai nazaridan o'zgarishida ikki hodisa kuzatiladi: 1) semantik strukturada yangi ma'noning paydo bo'lishi; 2) semantik strukturadagi ma'noning yo'qolishi.

Semantik strukturaning o'zgarishni o'rganishda leksik ma'noning yo'qolishi emas, balki yangi ma'noning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq masalalarni yoritish nazariy va amaliy jihatdan muhimdir.

Bir ma'nolilik so'z hayotining dastlabki davrlariga, ko'p ma'nolilik esa keyingi davrlariga xos bo'ladi. Lekin so'zning birdan ortiq ma'noga egaligi hamma vaqt ham shu so'z semantik strukturasi taraqqiyotini ko'rsatuvchi fakt bo'lavermaydi. Masalan: polisemantik so'zdan yasalgan so'z, shuningdek, polisemantik affiks yordamida yasalgan so'z ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin.

Lekin bu hodisani so'z semantik strukturasi o'zgarishi deb bo'lmaydi. Chunki bunday yasama so'zdagi birdan ortiq ma'no shu so'z yasalganining o'zidayoq mavjud bo'ladi. Bunday yasama so'z til taraqqiyoti

jarayonida yana yangi ma'no kasb etsagina, buni semantik strukturaning taraqqiyoti deb baholash mumkin.

Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, paydo bo'layotgan yangi-yangi narsa-hodisalar tilda o'z ifodasi, o'z atamasi bo'lishini talab etadi. Shunga ko'ra tilning leksikasi o'sib, rivojlanib boradi. Bunday rivojlanishda ikki hodisani kuzatish mumkin: 1) yangi paydo bo'lgan narsa-hodisani atash talabi bilan tilda yangi so'z paydo bo'ladi; 2) shuunday talab asosida so'zning yangi ma'nosi yuzaga keladi (tilda bor bo'lgan so'z yangi narsa-hodisaning atamasiga aylanadi).

So'zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi faktorlarni ikki asosiy gruppaga ajratish mumkin:

1. Nolingvistik faktorlar. Yangi ma'noning nolingvistik faktor asosida paydo bo'lishi nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishidir. Bunda ma'lum narsa, belgi yoki harakatning atamasi bo'lgan so'z boshqa bir narsa, belgi yoki harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi, ya'ni uning ham nomiga aylanadi. Shu yo'l bilan so'zning yangi ma'nosi (ma'nolari) yuzaga keladi. Masalan: *probe* so'zining birinchi ma'nosi – “*surgical instrument for exploring wound*”, keyingi ma'nosi “*an instrument for exploring space*”. Joy so'zining birinchi gapdagi ma'nosidan boshqa ma'nolari nom ko'chishi asosida paydo bo'lgan: *Borib-borib tangaday joyni oladi. Bu yer hazilning joyi emas. Hojimirsiroj avtobusda joy talashib, bolali bir xotin bilan aytiishb qoldi. Iqbolingga yaxshi joydan qallig' chiqdi, bolam.*

2. Lingvistik faktorlar. Bir so'zning yangi bir narsa, belgi, harakat kabilarning atamasiga aylanishining, ya'ni nom ko'chishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishining ma'lum asos va usullari bor.

Bular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) funksiyadoshlik. Biror narsa, belgi yoki harakatning nomini o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko'chirish metafora usuli bilan yangi ma'no hosil qilish deyiladi. Masalan, *foot (of a mountain)*, *neck (of a bottle)*. Quyidagi misollardagi *etak* va *uch* so'zlarining ma'nolariga

e'tiborimizni qarataylik: *Choponning etagi bilan peshanasining terini artdi. Fevralning etaklarida kun ilib ketdi.*) *Juvon Sidiqjondan pichoq so'rab olib, ikkita bodring archidi, birini o'zi tishlab, ikkinchisini pichoq uchida Sidiqjonga uzatdi.*)

O'zaro o'xshashlik faqat narsa-predmetlardagina emas, balki belgi-xususiyat va harakat-holatlarda ham bo'ladi. Shu sababli, sifat va fe'llarda ham metafora yo'li bilan nom ko'chish hodisasi bor.

Narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik-asosida nom ko'chishi metonimiya usuli bilan yangi ma'no hosil qilish deyiladi. Masalan, *town* so'zi: *The whole town was asleep; hall* so'zi: *The hall was silent.*

O'zbek tilida esa *yurt, kech, yechmoq* so'zlarining quyidagi misollardagi ma'nolari munosabatiga e'tibor beramiz: *Shu topda Fanlar akademiyasining marosimlar zalida yurtga dong'i ketgan olimlar yig'ilishgan edi. Kech yotsa ham ertalab yengil bo'lib turadi. Bu muammoni keksa bir jangchi yechib berdi.*

Butunning nomi bilan uning qismini yoki, aksincha, qism nomi bilan butunni atash orqali yangi ma'no hosil qilish sinekdoxa usuli deyiladi. Masalan, *a pretty penny – a good sum of money. Olma* so'zining meva va shu mevani yetkazuvchi daraxt ma'nolari, *tikan* so'zining sanchiladigan qismi va shunday narsali o'simlikning o'zi ma'nolari sinekdoxa usuli bilan yangi ma'no hosil bo'lish natijasidir.

Bajaradigan vazifasidagi birlik asosida nom ko'chishi funksiyadoshlik asosida nom ko'chishi deyiladi. Masalan: *qalam* so'zi tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv qurolini bildirgan. Vazifasi bir xil bo'lganidan yozuv quroli ham *qalam* deb ataladigan bo'lgan.

Ko'rsatilgan usullardan metafora va metonimiya eng mahsuldor bo'lib, sinekdoxa va funksiyadoshlik kam mahsuldir. Ayniqsa funksiyadoshlik asosida juda kam yangi ma'no hosil qilinadi. Lingvistik faktor asosida ikki asosiy yo'l bilan yangi ma'no hosil bo'ladi: 1) ellipsis 2) kalkalash.

Aslida birikmaga teng bo'lgan birlikning biror komponenti tushib qolishi nagijasida shu birikmaga xos ma'no bir so'zning o'ziga taalluqli bo'lib

qoladi. Bu ellipsis hodisasi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi deyiladi. Masalan: *ugra* so'zi: Ugra solib tayyorlangan ovqat *ugra oshi* deyilgan (hozir ham shunday atash bor). *Bozordan qaytishga tayyorlangan ovqat serqatiq ugra ekan.*

Yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi hodisalardan biri semantik kalkadir. Masalan: *saroy* so'zining *san'at saroyi*, birikmasidagi ma'nosi *дополн. учреждение* birikmalarini kalka yo'li bilan o'zlashtirish; *sirtqi* so'zining *sirtqi o'qish* birikmasidagi ma'nosi *заочное обучение* birikmasini kalka yo'li bilan o'zlashtirish orqali hosil bo'lgan.

Morfemika — so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'limot. So'zning ma'noli qismlari morfemalar deyiladi. Masalan, *ishchilarimiz* so'zi *ish*, *-chi*, *-lar*, *-imiz* qismlaridan iborat. Bulardan har biri so'z doirasida o'ziga xos ma'no bilan qatnashadi. *Ishchilarimiz* so'zining ma'noli qismlarga bo'linishdagi oxirgi chegara shu. Bu qismlar yana bo'linadigan bo'lsa, uning ma'nosi yo'qoladi. Demak, morfema so'zning bo'linmas eng kichik ma'noli qismidir.

Morfemalar bildiradigan ma'nolar turli-tuman. Lekin, asosiy xususiyatiga ko'ra, morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) o'zak morfema, 2) affiks morfema.

O'zak morfema so'zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma'no ifodalay oladigan morfemadir. O'zak morfema so'z yasaliishi uchun ham, shakl yasaliishi uchun ham asos bo'la oladi: *ishchi*, *ishchan*, *ishsiz* (*ish* — so'z yasaliishiga asos bo'lyapti); *ishni*, *ishda*, *ishga*, *ishdan* (*ish* — shakl yasaliishiga asos bo'lyapti).

Affiks morfema mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemadir: *kuchli*, *harakatchan*, *ishla*, *do'stona* (so'z yasayapti); *uy*, *uyim*, *uyga* (shakl yasayapti).

So'z tarkibida affiks morfema (affiks) hamma vaqt ishtirok etavermaydi. Masalan, *ish*, *odam*, *suv*, *havo*, *daraxt*, *qush*, *tosh* va boshqalar.

Biror soʻz formal jihatdan oʻzak yoki affiksial morfemadan yoki har ikkalasidan tashkil topgandek koʻrinishi mumkin. Lekin bu soʻz qismlarga ajralganda har bir tomonning oʻz maʼnosi boʻlmasa, bir oʻzakka teng boʻladi, yaʼni uni oʻzak va affiksial morfemaga ajratish toʻgʻri boʻlmaydi. Masalan, *quloqchin* soʻzidagi *quloq* mustaqil maʼno ifodalaydi. Lekin undagi *-chin* elementining maʼnosi haqida gapirish qiyin, shunga koʻra uni morfema deb boʻlmaydi.

Demak, *quloqchin* soʻzi morfemalarga (maʼnoli qismlarga) ajratilmaydi shuningdek *tirik*, *tiril* soʻzlarida *-ik* va *-il* ning affiksliigi sezilib turibdi, lekin uning *tir* qismi biror maʼnoga ega emas. Shu jihatdan bu soʻzlarni ham morfemalarga ajratib boʻlmaydi. *Kunda*, *chindan* soʻzlaridagi *kun* va *chin* qismi hozirgi kunda mustaqil maʼno ifodalaydi. *-da* va *-dan* qismlari kelishik maʼnosini ifodalovchi soʻz formasini yasaydi. Lekin ular *kunda*, *chindan* soʻzi doirasida oʻz maʼno va vazifasini yoʻqotgan. Shu sababli bu soʻzlar ham morfemalarga (maʼnoli qismlarga) ajratilmaydi.

Oʻzak ifodalaydigan maʼno soʻzga xos leksik maʼnoning yadrosini tashkil etadi. Affiksning maʼnosi esa yordamchi, qoʻshimcha maʼno boʻlib, oʻzak maʼnosiga nisbatan ancha umumiyliigi bilan farqlanadn. Masalan, *suvchi*, *sportchi* soʻzlarida har bir oʻzak morfema (*suv*, *sport*) konkret bir predmet nomini bildirgan holda, ularga qoʻshilgan *-chi* affiksi (affiksial morfema) faqat bir umumiy maʼnoni — bajaruvchi (shugʻullanuvchi) shaxs oti maʼnosini bildiradi.

Oʻzak morfema oʻz konkret maʼnosidan uzoqlashib, umumiy xarakterdagi maʼno ifodalaydigan vositaga, yaʼni affiksial morfemaga aylanishi mumkin. Masalan, *ishxona*, *choyxona*, *doʻxtirxona*, *bosmaxona* soʻzlaridagi *xona* elementi oʻz leksik maʼnosidan uzoqlashib, biror ish-faoliyat joyi maʼnosini bildiruvchi soʻz yasovchi vositaga aylangan. Demak, bunda *xona* elementi oʻzak morfemadan koʻra affiksial morfemaga yaqin turadi. Xuddi shuningdek, *talabnoma*, *ruxsatnoma*, *taklifnoma*, *murojaatnoma*, *aybnoma* soʻzlaridagi *noma* elementi ham oʻzak morfemadan koʻra affiksial morfemaga

(soʻz yasovchi affiksga) yaqin turadi. *Bogʻbon, saroybon, janggox, oromgox, oshxoʻr, gʻamxoʻr* kabi soʻzlardagi *bon, gox, xoʻr* elementlari ham aslida mustaqil maʼnoli boʻlib, hozirda affiks holiga kelgan.

Til taraqqiyoti jarayonida, soʻzning semantik va fonetik strukturasi boʻlgani kabi, uning morfema strukturasi ham turlicha oʻzgarishlar boʻlib turadi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. Ikki oʻzak morfema bir oʻzak morfema holiga keladi: *motel < motorist + hotel, bugun < bu kun*.

2. Aslida oʻzak morfemaga teng boʻlgan qism oʻz mustaqilligini yoʻqotib, affiks bilan bir butun holda oʻzak morfemaga aylanadi. Masalan, *yuksak, yuksal* soʻzlaridagi -k va -l ning affiksial morfema ekani sezilib turibdi.

Lekin hozirgi oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanuvchi *yuksa* leksemasi yoʻq. Shu sababli *yuksaklik* va *yuksaldi* soʻzlaridagi *yuksak* va *yuksal* bir butun holda oʻzak morfema sanaladi. Aslida *yuksa* ning oʻzi ham ikki morfemadan — *yuk* («yuqori» maʼnosida) oʻzak morfemadan va feʼl yasovchi -sa affiksial morfemadan iborat boʻlgan.

Soʻz tarkibida mustaqil maʼnoli qism ajralib (koʻrinib) tursa-da, lekin unga qoʻshilgan qism affiksga xos maʼno va vazifaga ega boʻlmaydi. Shu sababli bunday soʻzlar ham morfemalarga ajralmaydi: *biron (biror), bezor* kabilar.

Soʻz strukturasi yuz bergan fonetik oʻzgarish natijasida oʻzak morfema bilan affiksial morfema oʻrtasidagi aloqa sezilarsiz holga keladi. Masalan, *qattiq* soʻzi aslida *qot(qotmoq)* oʻzagiga -iq affiksining qoʻshilishidan yasalgan. Lekin *qot* va *qattiq* soʻzlarida o va a tovushlari orasidagi farq, shuningdek, *qattiq* soʻzida bir t tovushining orttirilishi bu soʻzning *qot* soʻziga aloqasini sezilarsiz holga keltirib qoʻygan. Natijada *qattiq* soʻzi morfemalarga ajralmaydigan boʻlib qolgan.

Biror yordamchi soʻz yoki uning biror formasi affiksga aylanadi. Masalan, *boryapti, ishlayapti* formasidagi -yap affiksi aslida *yot* koʻmakchi

fe'lining ravishdosh formasidan kelib chiqqan: *-yotib//yatip-yap*. Aslida mustaqil morfema hisoblangan birdan ortiq affiks bir affiks (bir morfema) holiga keladi. Masalan *ukamniki, maktabniki* so'zlaridagi *-niki* affiksi tarixan mustaqil *-ning* va *-ki* affikslaridan iborat bo'lgan.

Affikslarning har biri o'ziga xos ma'noga ega. Lekin bajaradigan vazifasiga ko'ra ular ikki turga bo'linadi: 1) so'z yasovchi affikslar; 2) shakl yasovchi affikslar.

So'z yasovchi affikslar yangi so'z hosil qiladi, so'zning leksik ma'nosining shakllanishida ishtirok etadi. Masalan, *xabarla, ishla, mixla, moyla* kabi so'zlardagi *-la* affiksi *xabar, ish, mix, moy* kabi predmet ma'nosini anglatuvchi o'zaklardan harakat ma'nosini anglatuvchi yangi so'z (fe'l) yasash uchun xizmat qilyapti.

Shakl yasovchi affikslar so'zning grammatik ma'no ifodalovchi shaklini yoki biror grammatik vazifaga xoslangan formasini yasaydi. Masalan, *do'stlarimizga* so'zidagi *-lar* ko'plik ma'nosini, *-imiz* shaxs ma'nosini ifodalovchi formani, *-ga* affiksi kelishik formasini yasash uchun xizmat qilyapti; *ishlamayapti* so'zidagi *-ma* affiksi inkor ma'nosini, *-la* zamonni, *-ti* shaxs ma'nosini ifodalovchi formani yasayapti.

Ingliz tilida otning ko'plik shakli *-s* shakl yasovchi affiks bilan ifodalanadi. U ot asosining so'nggi tovushining yozilishi va aytilishiga ko'ra turlicha talaffuz qilinadi. Asos jarangsiz undosh bilan tugaganda ko'plik son [s] tarzida talaffuz qilinadi. Masalan, *week-weeks* (hafta- haftalar) *a lip - lips* (lab-lablar). Asos jarangli undosh yoki unli bilan tugaganda ko'plik son shakli [z] deb talaffuz qilinadi: *a bag-bags* (sumka-sumkalar), *boy-boys* (bola-bolalara), *sea -seas* (dengiz - dengizlar).

Asos *-s, -ss, -x, -z, -ch, -tch, -sh* undoshlari bilan tugasa, ko'plik *qo'shimchasi-es* yoziladi va [iz] deb talaffuz qilinadi. Masalan, *class-classes* (sinf –sinflar), *bus-buses* (avtobus – avtobuslar), *box-boxes* (korobka - korobkalar), *dish-dishes* (tarelka – tarelkalar), *speech - speeches* (nutq- nutqlar), *watch-watches* (soat – soatlar).

Asos *s, c, z, g* harflaridan keyin kelib talaffuz qilinmaydigan *–e* tovushi bilan tugaydigan ko'plikdagi otlar [iz] shaklida o'qiladi: *horse-horses* (ot – otlar), *place- places* (o'rin - o'rinlar) *prize- prizez* (mukofat – mukofatlar), *bridge - bridges* -ko'prik - ko'priklar.

O'zbek tilida shunday affikslar ham borki, ular so'z birikmasiga, hatto gapga teng konstruksiyaga qo'shiladi va uni biror sintaktik vazifa uchun moslaydi. Masalan, *-li* va *-lik* affiksi xuddi shunday xususiyatga ega.

-li affiksi otlarga qo'shilib sifat yasaydi: *kuchli, aqlli* kabi. Bundan tashqari, u ot birikmalarga qo'shilib, uni sifatlovchi birikmaga aylantiradi: *Usti brezent yopqichli mashina yonidan yer o'lchaydigai apparatning uch oyog'i chiqib turibdi.* (S. Ahm.)

Bu misollarda *-li* affiksi egalik, borlik ma'nolarini ifodalaydi. Lekin u yangi so'z ham, shuningdek, so'zning formasini ham yasayotgani yo'q. Chunki u so'zga emas, balki so'z birikmasiga qo'shilyapti: *o'rta, oliy ma'lumot + li, brezent yopqich + li.*

So'z yasovchi affikslar so'zning material qismiga, leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. Forma yasovchilar esa so'zning formal qismida bo'ladi. Masalan, *terimchilarimizga* so'zida *terimchi* — material qism (leksema), undan keyingi qism esa formal qism (so'z formasi) hisoblanadi.

Forma yasovchi affikslar asosiy xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi; 1)kategorial formani yasovchi affikslar; 2) nokategorial (funksional) formani yasovchi affikslar.

Kategorial forma yasovchi affikslar malum so'z turkumidagi biror grammatik kategoriyaga xos forma yasaydi. Masalan, otlardagi ko'plik, egalik va kelishik formasini yasovchi affikslar, fe'lning mayl, zamon, shaxs-son formasini yasovchi affikslar kategorial forma yasovchi affikslardir.

Nokategorial forma (funksional forma) yasovchi affikslar grammatik kategoriyaga oid bo'lmagan ma'noni ifodalovchi, ma'lum sintaktik vazifaga xoslangan so'z formasini hosil qiladi. Masalan, otlarga qo'shilib xoslik

ifodalaydigan -niki affiksi (*o'zimniki, do'stimniki*), fe'ning sifatdash, ravishdash formasini yasovchi affikslar (*ishlayotgan, bor-gach* kabi) ana shu turdagi affikslardir.

So'z yasovchi affikslar so'z yasashida ishtirok etuvchi komponent sifatida tilshunoslikning «So'z yasalishi» bo'limida o'rganiladi. Forma yasovchi affikslar esa, forma yasashida ishtirok etuvchi komponent sifatida tilshunoslikning «Morfologiya» bo'limida o'rganiladi.

Affikslarning so'zga qo'shilish tartibida ma'lum qonuniyat bor. Yuqoridagidan ma'lumki, so'z yasovchi affikslar so'zning material qismiga, leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. Shunga ko'ra, tabiiy ravishda, bu turdagi affikslar so'zga forma yasovchi affikslardan oldin qo'shiladi: *ishchilar, ishladi, chiroyliroq* va b.

Forma yasovchi affikslarning sintaktik munosabat ifodalamaydigan turi sintaktik munosabat ifodalaydigan turidan oldin qo'shiladi: *ishchilarga, ishlamadi, ishlayapti* kabi.

O'zbek tilida affikslar suffiks xarakterida bo'ladi, ya'ni so'zda o'zakdan keyingi pozitsiyada turadi: *ishcha, ishla, kuchli, maktabni, bolalar, ishlasin, shilatyapman* kabi. Lekin boshqa tillardan kirib o'zlashib qolgan so'zlarda o'zak oldiga qo'shiluvchi affikslar (old qo'shimchasilar) ham bor. Bular so'z yasovchilar doirasidagina uchraydi: *serharakat, serqatnov, sergap, baquvvat, benuqson, betashvish; antifaishst* kabi.

Affikslar struktura jihatidan sodda yoki qo'shma bo'ladi. Masalan, *paxtakor, paxtadan* so'zlaridagi -kor va -dan affikslari sodda affikslardir. Demak, sodda affiksda, hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan, ma'noli qismlar bo'lmaydi, u birgina ma'noli qismdan iborat bo'ladi.

Qo'shma affikslar hozirda mustaqil affiks sifatida qo'llana oladigan ikki yoki undan ortiq affiksning o'zaro birikib, bir affiks (bir morfema) holiga kelishidan tuziladi. Masalan, *odamgarchilik*. Hozirgi o'zbek tilida -chi, -lik va -gar affikslari so'z yasash uchun xizmat qiladi, ya'ni ularning har biri alohida bir affiksdir (*suvchi, do'stlik, zargar* kabi). Lekin

odamgarchilik soʻzi tarkibidagi -garchilik affiksi yaxlitligicha bir affiks hisoblanadi. Chunki hozirgi oʻzbek tilida *odamgar* yoki *odamgarchi* soʻzlari yoʻq. Demak birdan ortiq affiksalar morfemaning oʻzaro birikib bir butun holga kelishidan hosil boʻlgan affiks qoʻshma affiks deyiladi.

Qoʻshma affikslar vazifasi bir xil yoki vazifasi har xil boʻlgan affikslarning birikuvidan hosil boʻlishi mumkin. Masalan, *serobgarchilik* soʻzidagi -garchilik uchta soʻz yasovchi affiksning birikishidan hosil boʻlgan. *Zavqlanmoq* soʻzidagi -lan affiksi bir soʻz yasovchi (-la) va bir forma yasovchi (daraja yasovchi -n) affiksning birikishidan hosil boʻlgan. *Kelmoqda* soʻzidagi -moqda affiksi ikki forma yasovchi (-moq va -da) affiksining birikishidan hosil boʻlgan.

Hozirgi zamon ingliz tilli leksikasini boyituvchi eng mahsuldor usullardan biri – bu soʻz yasashning morfologik usulidir. Bu usul affikslar va soʻz qoʻshish yordamida hamda affiksiz soʻz yasash orqali amalga oshiriladi. Affiksiz soʻz yasashda tovushlar almashinuvi va soʻz yasash vositasi sifatida urgʻuni koʻchirish orqali amalga oshiriladi. Lekin soʻz yasashning bu usuli koʻp tarqalmagan. U ayniqsa feʼllardan va sifatlardan ot yasashda koʻproq kuzatiladi. Masalan, *bleed-blood, to live-life, to ob'ject-'object, to pre'sent-'present*.

Affiksiz soʻz yasash usuliga ingliz tilida keng tarqalgan konversiyani, yaʼni berilgan oʻzakni soʻz oʻzgartirishning boshqa paradigmasiga koʻchirish orqali soʻz yasash usulini kiritish mumkin. Bunda yangi soʻzning sintaktik birikuvi oʻzgargani sababli konversiya soʻz yasashning morfologik-sintaktik usulini taqozo etadi.

Hozirgi zamon ingliz tilida **affiksatsiya** soʻz yasashda eng universal vositalar hisoblanadi. Affiksasiya – bu oʻzakka u yoki bu soʻz yasovchi vositalarni qoʻshish orqali soʻz yasashdir. Affikslar yordamida soʻz yasashning uch turi mavjud: suffikslar yordamida, prefikslar yordamida va suffiks-prefikslar yordamida.

Suffiksatsiya ot soʻz turkumiga tegishli boʻlgan soʻzlarni yasashga xos.

-er, -or suffiksi fe’ldan ot yasaydi, harakat egasini ifodalaydi

to buy — sotib olmoq	buyer —xaridor
to direct — boshqarmoq	director — boshliq
to teach —o‘qitmoq	teacher —o‘qituvchi
to work — ishlamoq	worker —ishchi

-ism va -ist suffikslari ideologiya, siyosiy va ilmiy yo‘nalishlarda ishlaydigan shaxslar otlarini yasaydi

Idealist	Xayolparast
Materialism	Materializm

-ee suffiksi ish-harakat bajaruvchisini bildiradigan shaxs otlarini bildiradi

to address — yubormoq	addressee —manzil
to employ —yollanmoq	employee —xizmatchi
to pay — to‘lamoq	payee — oluvchi

-ian suffiksi qaysi millatga tegishliligimizni bildirishga xizmat qiladi

Russian	Rossiyalik
Ukrainian	Ukrainalik

Bulgarian	Bolgariyalik
Norwegian	Norvegiyalik

***-age* suffiksi odatda fe’ldan mavhum ot yasaydi**

to leak — oqmoq	leakage —chakka
to marry — uylanmoq, erga tegmoq	marriage — nikoh

***ant, -ent* suffikslari bo‘lgan so‘zlardan *-ance, -ence* — suffikslari yordamida sifatlardan mavhum otlari yasaladi**

important —muhim	importance —muhimlik
different — o‘zgacha	difference —tafovut
resistant — chidamli	resistance —qarshilik

***-dom* suffiksi sifatdan mavhum otlarini yasaydi**

free — erkin	freedom —ozodlik
king —qirol	kingdom —qirollik

***-hood* suffiksi odatda otlardan mavhum otlarini yasaydi**

brother — aka, uka	brotherhood — birodarlik
child — go‘dak	childhood — bolalik
neighbour — qo‘shni	neighbourhood — qo‘shnichilik

***-ion, -ation, -sion, -ssion* suffikslari fe‘ldan ot yasaydi va yasama so‘zning o‘qilishi yoki yozilishi o‘zgaradi**

to collect — termiq	collection — yig‘ish
to combine — birlashtirmoq	combination — birikish
to transmit — uzatmoq	transmission — ko‘rsatuv

***-ment* suffiksi fe‘ldan ot yasaydi**

to agree — kelishmoq	agreement — rozilik
to develop — rivojlantirmoq	development — taraqqiyot

***-ness* suffiksi sifatdan ot yasaydi**

dark — qorong‘u	darkness — qoraong‘ulik
kind — mehribon	kindness — mehribonlik
weak — kuchsiz	weakness — kuchsizlik

***-ship* suffiksi otdan mavhum otlarni yasaydi**

friend — do‘st	friendship — do‘stlik
leader — etakchi	leadership — rahbarlik
to please — huzur baxsh etmoq	pleasure — mamnuniyat
to press — qismoq	pressure — bosim
to seize — egallamoq	seizure — egallash

***-able, -ible* suffikslari harakatga duch kelishni ifodalaydi**

to change — o‘zgartmoq	changable — o‘zgaruvchan
to eat — emoq	eatable — esa bo‘ladigan
to walk — bormoq	walkable- o‘tadigan
to convert — e’tibor	convertable—e’tiborni qaratmoq

***-al* suffiksi otdan sifatni yasaydi**

centre — markaz	central — markaziy
culture — madaniyat	cultural — madaniyatli
form — shakl	formal — rasmiy

***-ant, -ent* suffikslari fe’ldan sifatni hosil qiladi (bu sifatlar *-ance, -ence* otlariga mos keladi)**

to differ —ajralib turmoq	different — o‘zgacha
to resist —qarshilik ko‘rsatmoq	resistant — qarshi chiqish

***z-ful* suffiksi otdan sifatni hosil qiladi va sifatning qay darajada ekanligini bildiradi**

beauty — go‘zallik	beautiful —chiroyli
doubt —ikkilanish	doubtful —shubhali
use —foйда	useful —foydali

***-ish* suffiksi sifatning quyidagi ma’nolarini tashkil qiladi:**

a) millatga mansublikni, b) ozaytirma sifatlarini

scott — shotlandiyalik	scottis - shotlandiyaliklarga oid
swede — shved	swedish — shvedlarga oid
red —qizil	reddish —qizg‘ish
brown — jigarrang	brownish — jigarrangroq

***-ive* suffiksi fe’ldan va otdan sifatni hosil qiladi**

to act —harakat qilmoq	active —faol
effect — natija	effective — oqibatli
to talk —gaplashmoq	talkative — sergap

***-less* suffiksi otlardan sifat yasab, biror bir narsaning mavjud emasligini, yo‘qligini ifodalaydi**

hope —ishonch	hopeless —umid qilib bo‘lmaydigan
use — foyda	useless —foydasiz
home — uy	homeless — uysiz

-ous suffiksi otdan sifat yasaydi

courage —jasurlik	courageous —jasur
danger — xavf	dangerous — xavfli
glory —shon	glorious — shonli

-y suffiksi otdan sifat yasaydi (ko‘pincha ob-havo bilan bog‘liq bo‘ladi)

cloud —bulut	cloudy — bulutli
dirt — ifloslik	dirty — iflos
fog — tuman	foggy — tumanli
rain —yomg‘ir	rainy —yomg‘irli
sun —quyosh	sunny —serquyosh

-en suffiksi sifat va otdan fe‘l yasaydi va unga bajarmoq ma’nolarini yuklaydi

sharp — achchiq	sharpen — charhlamoq
-----------------	----------------------

short —kalta	shorten — qisqartirmoq
strength — kuch	strengthen — mustahkamlamoq
wide — keng	widen —kengaytirmoq

***-fy* suffiksi asosan sifatdan ba’zan otdan fe’l yasaydi**

false — sohta	to falsify — sohtalashtirmoq
glory —shuhrat	to glorify — maqtamoq
simple —oddiy	to simplify — soddalashtirmoq
pure —toza	to purify —tozalamoq

***-ize* suffiksi odatda otdan fe’l yasaydi**

character — xarakter	to characterize —ta’riflamoq
crystal — billur	to crystallize — kristalga aylantirmoq
sympathy — uyg’unlik	to sympathize —achinmoq

Prefiksatsiyada suffiksatsiyadek o‘zakka qo‘shish orqali emas, balki so‘z yasashda prefiks butun bir so‘zga qo‘shish orqali yangi so‘z yasaladi. Prefikslar yordamida bir xil so‘z turkumiga taalluqli bo‘lgan yangi so‘zlar yasaladi. Prefiksatsiya ingliz tilida fe’llarni yasashda mahsuldor vosita hisoblanadi. Prefiks yordamida yasalgan otlar va sifatlar soni juda kam.

Semantik belgisiga ko‘ra prefikslarni bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Inkor va qarama-qarshilik ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirgan prefikslar son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan keyin son jihatdan zamon va makon munosabatlarini hamda ish-harakatning takrorlanishini ifodalovchi prefikslar turadi.

***un-* old qo‘shimchasi**

comfortable — qulay	uncomfortable —noqulay
equal — teng	unequal —teng bo‘lmagan
expected — kutilgan	unexpected — kutilmagan
happy — baxtli	unhappy —baxtsiz
important — muhim	unimportant — ahamiyatsiz
known — atoqli	unknown — noma’lum
limited — chegaralangan	unlimited — chegaralanmagan
pleasant — yoqimli	unpleasant — yoqimsiz

***un-* old qo‘shimchasi qarama-qarshi ma’nodagi**

fe’llarni yasashga xizmat qiladi

to dress —kiyintirmoq	to undress —echintirmoq
to lock — berkitmoq	to unlock — ochmoq
to pack —qadoqlamoq	to unpack — ochib olmoq

***in-* old qo'shimchasi**

un- old qo'shimchasiining ishlatilishi haqida aniq bir qoida yo'q, ammo *in-* ma'nosi bilan farqlanmasa ham biroz boshqacha. Uning muhim farqi shundaki, u fe'l bilan ishlatilmaydi.

ability — qobiliyat	inability — imkoni yo'qlik
adequate — etarli	inadequate — etarli bo'lmagan
capable — qobiliyatli	incapable — qobiliyatsiz
comparable — taqqoslab bo'ladigan	incomparable — o'xshashi yo'q
experienced — tajribali	inexperienced — tajribasiz

***in-* old qo'shimchasi bir xil holatlarda shakli o'zgaruvchan bo'ladi.**

- **i** dan oldin tursa ***il-*** ga o'zgaradi;
- **r** dan oldin tursa ***ir-*** ga o'zgaradi;
- **m** dan oldin tursa ***im-*** ga o'zgaradi.

legal —qonuniy	illegal — noqonuniy
logical — mantiqiy	illogical — mantiqsiz
regular — muntazam	irregular — noto'g'ri
responsible — javobgar	irresponsible — mas'ulyatsiz
patient — chidamli	impatient — sabrsiz

possible — mumkin	impossible —amalg oshmaydigan
-------------------	----------------------------------

***dis-* old qo'shimchasi inkor yoki qarama-qarshi harakatni bildiradi.**

Inkor:

honest —rostgo'y	dishonest — vijdotsiz
to approve —ma'qullamoq	disapprove —qoralamoq
to like — yoqtirmoq	to dislike — yomon ko'rmoq

Qarama-qarshi harakat:

to appear —paydo bo'lmoq	to disappear —g'oyib bo'lmoq
to arm —qurollanmoq	to disarm —qurolsizlantirmoq
to connect — bog'lamoq	to disconnect —ajratmoq

Boshqa inkor old qo'shimchalar

Ushbu old qo'shimchalar orasida lotin va grek tillaridan kelib chiqqan xalqaro old qo'shimchalar ko'p uchraydi.

- ***a\ab-*** abnormal, amoral;
- ***anti-*** antivirus, antibiotic;
- ***counter-*** counterstrike, counter-clockwise;
- ***de-***: decode, deformation.

re- old qo'shimchasi (qayta, yana, takroran)

to appear —paydo bo'lmoq	to reappear —yangidan barpo qilmoq
to construct — qurmoq	to reconstruct —qayta qurmoq
to read — o'qimoq	to reread —qayta o'qimoq
to sell — sotmoq	to resell — qayta sotmoq

mis- old qo'shimchasi (noto'g'ri, xato)

to hear —eshitmoq	to mishear — xato eshitmoq
to lead —boshqarmoq	to mislead —noto'g'ri fikrlamoq

over- (yuqori, ilgari) va under- (kam, etarli emas) old qo'shimchalari

to estimate — baholamoq	to overestimate — yuqori baho bermoq to underestimate—yetarli baho bermaslik
to pay — to'lamoq	to overpay — yuqori maosh to'lamoq to underpay — etarli haq to'lamaslik

**pre- (old, ilgari) va post- (keyingi, so'ng) old qo'shimchalari
ko'pincha chiziqcha bilan yoziladi**

revolutionary —inqilobiy	pre-revolutionary — inqilobgacha post-revolutionary — inqilobdan keyin
war —urush	pre-war — urushgacha post-war —urushdan keyin

co- old qo‘shimchasi (birgalik, hamkorlik), ko‘pincha chiziqcha bilan yoziladi

author —muallif	co-author —hammuallif
existence — tirikchilik	co-existence —birga hayot kechirmoq
operation — faoliyat	co-operation —faoliyat yuritmoq

inter- old qo‘shimchasi (ora, orasi, o‘zaro yaxshi)

national — milliy	international —xalqaro
action —faoliyat	interaction —o‘zaro ta’sir
town —shahar	intertown — shaharlararo

ex- old qo‘shimchasi (oldingi, ilgari), chiziqcha bilan yoziladi

husband — er	ex-husband —oldingi er
president — prezident	ex-president — eks-prezident

sub- old qo‘shimchasi (osti, qismi)

marine — dengiz floti	submarine — suv osti kemasi
section — qism, shuba	subsection — bo‘lakcha

en- old qo‘shimchasi (biror harakatni bajarish)

circle — aylana	encircle — o‘ramoq
large — ulkan	enlarge — kengaymoq
slave — asir	enslave — qul qilmoq

Har bir til o‘z prefikslariga hamda boshqa tildan o‘zlashtirgan prefikslariga ega. Kirib kelgan prefikslarning bir qismi (roman va grek tillariga tegishli bo‘lgan) baynalminal xarakterlidir. Bular quyidagi ot yasobchi prefikslarlardir: anti – (anticyclone), ultra – (ultramodern), a – (anomalous), inter – (international) va hokazo.

Dunyoning deyarli hamma tillarida so‘z yasash va so‘z shakli hosil qilishning yetakchi vositasi bo‘lgan affiksatsiya o‘zbek tilida suffiksatsiya xarakteridadir (unda prefiks orqali yasashning deyarli yo‘q, old qo‘shimchalarning boshqa tillardan olingan). Old qo‘shimchalar yasovchi affiks xarakterida bo‘lib, ularning qo‘llanish doirasi tor, ularning sinonimlari aktiv (*baquvvat quvvatli, barvaqt — vaqtli, beish — ishsiz, betinim — tinimsiz, beto‘xtov — to‘xtovsiz, beso‘roq — so‘roqsiz, noo‘rin — o‘rinsiz*).

Fe‘l prefikslari sistemasi har bir tilda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida fe‘l yasovchi mahsuldor prefikslarga quyidagilarni kiritish mumkin: *de-* (*deform, detune*), *dis-* (*dislike, disapprove*), *un-* (*unfasten, unfold*), *mis-* (*mistrust, misjudge*), *re-* (*rewrite, re-elect*), *up-* (*uplift, uprise*), *under-* (*underline, underrate*), *over-* (*overcloud, overdo*) va hokazo.

Ingliz tili so‘z yasash sistemasida prefiksatsiya-suffiksatsiya usuli unchalik ko‘p ishlatilmaydi (*superannuation, unworthiness, superficial*). Matn

statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, 100 ta otdan ingliz tilida prefiks va suffiks yordamida yasalgan atigi bitta yoki ikkita ot uchraydi.

So'z qo'shish – morfologik so'z yasash tipi bo'lib, unda yangi qo'shma yoki qisqartma so'z ikki yoki undan ortiq o'zak yoki so'zning qo'shilishidan yasaladi. Shuni inobatga olish kerakki, qo'shma so'zlar ikkita to'liq negizning qo'shilishidan yasaladi: *vodoprovod*, qisqartma so'zlar esa to'liq negizga qisqartirilgan negizning qo'shilishidan yasaladi: *pedinstitut*.

Yuqorida sanab o'tilgan struktur tiplaridan tashqari ingliz tiliga birinchi unsuri sifatdash yoki gerundiy bo'lgan yasama so'zlar xosdir: *reading-hall*, *dining-room*, *dancing-girl*, *walking-stick*.

Ingliz va o'zbek tillarida yasama sifatlar strukturalari quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

- 1) sifat negizi+ sifat negizi: *blue-black*; *to'q yashil*;
- 2) sifat negizi+ot negizi sifat yasovchi suffiks bilan: *cold-blooded*; *sovuqqon*.
- 3) ot negizi+sifat yoki ravish negizi: *peace-loving*; *tinchliksevar*.

Ingliz va o'zbek tillarida mahsuldor so'z yasovchi vositalarning qiyosiy tahlili taqqoslanayotgan tillar anchagina tipologik o'xshash xususiyatlarga ega ekanliklarini ko'rsatdi.

Shu bilan birgalikda, ushbu tillarning o'ziga xos xususiyatlari, so'z yasovchi vositalari mahsuldorligidagi ba'zi farqlar, yasalgan so'zlarning tuzilishi jihatidan farqlari, so'z yasovchi vositalarning son jihatdan farqlari haqida gapirib o'tish o'rinlidir. Ammo ingliz tilini o'zbek tiliga qarama-qarshi qilib qo'yadigan farqli belgilarning ko'pligiga qaramasdan tipologik o'xshash xususiyatlarning mavjudligi ushbu tillarning so'z yasash sohasida qandaydir yaqinlik borligidan dalolat beradi.

So'zlardagi kabi affikslarda ham polisemiya, sinonimiya, omonimiya va antonimiya hodisalari mavjud.

Affiksal polisemiya. Affikslar ham, xuddi soʻzlar kabi, koʻp maʼnoli (polisemantik) boʻlishi mumkin. Masalan, -chilik affiksi quyidagi maʼnodagi otlar yasaydi:

Asosdan anglashilgan narsa yetishtiriladigan sohani ifodalovchi ot yasaydi: paxtachilik, urugʻchilik, chorvachilik, uzumchilik kabi;

Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiradi: pishiqchilik, moʻlchilik, arzonchilik kabi;

Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bogʻliq boʻlgan ishni anglatadi: ulfatchilik, tirikchilik, oʻrtoqchilik kabi va hokazo.

Soʻz yasovchi -chi, -ma, -li, -la kabi affikslar ham koʻp maʼnoli affikslardir. Koʻp maʼnolilik faqat soʻz yasovchi affikslarga emas, balki forma yasovchi affikslarga ham xos. Masalan, -sa affiksi yordamida yasaluvchi feʼl formasi oʻndan ortiq maʼnoga ega. Koʻp maʼnoli affiks anglatadigan maʼnolar oʻrtasida bogʻlanish boʻladi. Masalan, -chi, affiksi traktorchi, sportchi, bufetchi, kombaynchi kabi soʻzlarda kasb-mutaxassislik egasini; hasharchi, jangchi, sayrchi soʻzlarida esa ish-faoliyatda qatnashuvchi shaxsni bildiruvchi ot yasayapti. Lekin ikkala holatda ifodalanayotgan maʼnolar oʻrtasida bogʻlanish borligi seziladi — ikkalasida ham umuman shaxs oti yasalyapti.

Aynan bir shakldagi (koʻrinishdagi) affiksning maʼnolari oʻrtasida bogʻlanish boʻlmasa, u koʻp maʼnoli (polisemantik) affiks emas, omonim-affiks sanaladi. Masalan, -ma affiksi ham koʻp maʼnoli affiks, ham omonim-affiks: Sifat yasaydi: 1. Predmetning feʼldan anglashilgan harakat usuli bilan tayyorlanishini, yuzaga kelishini bildiruvchi sifat yasaydi: qisqartma (soʻz), agʻdarma (etik), qaynatma (shoʻrva), ivitma (palov), terma (komanda) kabi; 2. Feʼldan anglashilgan harakat predmetning odatdagi, oʻziga xos belgisi ekanini bildiruvchi sifat yasaydi: koʻchma (qum), sochma (oʻq), burama (mix) kabi. -ma affiksiga xos bu ikki maʼno oʻrtasida oʻzaro bogʻlanish mavjud. Demak, bu oʻrinda -ma koʻp maʼnoli sifat yasovchi affiks.

Ot yasaydi: 1. Feʼldan anglashilgan harakat natijasida yuzaga keladigan narsa, predmet atamasini bildiradi: uyushma, eritma, choʻkma, suzma kabi;

2.Narsa-predmetnng fe'ldan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallanganini bildiradi: yo'qlama, tugma, ko'rgazma kabi. Ot yasovchi -ma affiksining bu ikki ma'nosi o'rtasida ham bog'lanish bor. Demak, ot yasovchi -ma affiksi ham ko'p ma'noli. Lekin sifat yasovchi -ma affiksi bilan ot yasovchi -ma affiksining ma'nosi o'rtasida bog'lanish yo'q. Shuning uchun ot yasovchi -ma affiksi bilan sifat yasovchi -ma affiksi omonim-affiks.

Affiksal omonimiya. Ma'nosi o'zaro bog'liq bo'lmagan, har xil affikslarning shaklan (fonetik jihatdan) bir xil bo'lishi affiksal omonimiya hodisasini hosil qiladi. Shaklan bir xil, lekin ma'nosi butunlay boshqa-boshqa bo'lgan affikslar omonim-affikslar deyiladi. Buni qisman yuqorida -ma affiksi misolida ham ko'rdik.

Omonimlik hodisasi bir xil yoki turli xil affikslar o'rtasida bo'lishi mumkin:

So'z yasovchi affikslar: -ki affiksi: 1) ot yasaydi: turtki, tepki, ko'chki; 2) sifat yasaydi: ichki, kechki, ustki.

Forma yasovchi affikslar:-(i)sh affiksi: 1) harakat nomi formasini yasaydi:o'qshi (o'qimoq), so'zlash (so'zlamog);2) birgalik daraja formasini yasaydi: yuvish (birga yuvmoq),olib borish (birga olib bormog).

So'z yasovchi affiks bilan forma yasovchi affikslar: -im affiksi: 1) ot yasaydi: o'rim, yig'im, terim; 2) ikkinchi shaxs,birlik anglatuvchi egalik formasini yasaydi:qo'lim, kitobim,qalamim.

Affiksning omonimligi yuqoridagilardan murakkab holatda bo'lishi mumkin: -ma affiksi: 1) ot yasaydi: suzma, ko'rgazma; 2) sifat yasaydi: ivitma (palov), yasama (so'z); 3) fe'lning bo'lishsiz formasini yasaydi: borma, aytma, so'rama.

Affiksal sinonimiya. Affikslarning shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir xil bo'lish hodisasi affiksal sinonimiya deyiladi. Demak, affiksal sinonimiya vazifasi bir xil bo'lgan affikslar doirasida, ya'ni so'z yasovchi yoki forma yasovchi affikslarning o'z doirasida bo'ladi: bexabar — xabarsiz (be- va -siz sifat yasovchi); yedir — yegiz (-dir va -giz orttirma daraja formasini yasovchi).

Sinonim-affikslarning umumiy ma'nosi bir xil bo'lsa-da, lekin ular qandaydir o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bu farqlar sinonim-affikslarning ma'no ottenkasida, qo'llanish doirasining keng yoki torligida va boshqalarda ko'rinadi. Masalan, sifat yasovchi -li, -dor, ser-, ba- affikslari o'zaro sinonim: savlatli, savlatdor, sersovlat, basavlat.

Lekin bularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, -li affiksi bular ichida eng aktiv affiks; -dor, ser- affikslari bilan yasalgan so'zlarda belgi darajasi kuchli bo'ladi: mazmunli — sermazmun — mazmundor. Biroq, ser- va -dor affikslarining qo'llanish doirasi ancha chegaralangan va bularning ma'nosida ham, qo'llanishida ham ma'lum nozik farqlar mavjud

Affiksal antonimiya. Affikslarning qarama-qarshi ma'no bildirish hodisasi affiksal antonimiya deyiladi. Lekin o'zbek tilida antonim-affikslar juda kam. Antonim-affikslarga misol sifatida so'z yasovchi -li va -siz affikslarini keltirish mumkin: kuchli- kuchsiz, andishali - andishasiz, xavfli – xavfsiz, barakali - bebaraka, nuqsonli - benuqson, foydali – befoyda.

I bob bo'yicha xulosa

So'z tilimiz sistemasining eng muhim va markaziy birligi ekanligi shubhasizdir. Uning til birliklarining boshqalaridan farqli jihati birinchi navbatda integrativ xususiyatida ko'rinadi. Bu juda muhimdir. Chunki u fonema, morfema kabi til birliklarining qo'llanish ob'yekti sanaladi. Biroq bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, so'z muammosi tilshunoslar uchun antik tilshunoslik davridan boshlab jumboqli bo'lib keldi va bugungi tilshunosligimizda ham shunday bo'lib qolmoqda.

Ta'kidlash lozimki, gap tarkibida qo'llanilayotgan so'z o'zi uchun belgilangan semantik vazifani bajaribgina q'olmay, o'zi tegishli bo'lgan morfologik kategoriya tasarrufidan chiq'ib, boshq'a bir morfologik kategoriya doirasidagi so'zlar vazifasini bajarishi ham mumkin. Masalan, sifatning asosiy vazifasi otning belgisini aniq'lash bo'lsa, otning bosh vazifasi, o'z navbatida,

predmetning nomini atash orq'ali belgilanadi. Ammo ko'p paytlarda otning fe'l, sifat funksiyasida kelishini ham kuzatamiz.

So'z tabiatining murakkabligi yana shunda ko'rinadiki, u tilning ko'p funksiyali kategoriyasiga kiradi. Shuning uchun u yoki bu so'zning ma'no xususiyatlari to'g'risida gapirar ekanmiz, uning funksiya nuq'tai nazaridan ham murakkab xarakterga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. So'z, fonema va morfemalardan farq'li o'laroq', nafaq'at sintagmatik q'ator zanjirida, balki paradigmatic q'ator doirasida ham o'z ma'nosiga va semantik vazniga egadir. Biroq' paradigmatic q'ator elementlari doirasida uning ma'nosi va funksiyalari hali umumiylik og'ushida bo'ladi.

So'z paradigmatic q'atordan sintagmatik q'atorga o'tgach, shu q'atorning ichki q'onun-q'oidalariga bo'ysungani holda, yangicha mazmun va funksiyalar kashf eta boshlaydi. Endi u, sintaktik aloq'alar maskani bo'lgan ma'lum bir gapning ajralmas tarkibiy bo'lagi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

So'z tarkibida mustaqil ma'noli qism ajralib (ko'rinib) tursa-da, lekin unga qo'shilgan qism affiksga xos ma'no va vazifaga ega bo'lmaydi. Shu sababli bunday so'zlar ham morfemalarga ajralmaydi: *biron (biror)*, *bezor* kabilar.

So'z strukturasi yuz bergan fonetik o'zgarish natijasida o'zak morfema bilan affiksal morfema o'rtasidagi aloqa sezilarsiz holga keladi. Masalan, *qattiq* so'zi aslida *qot(qotmoq)* o'zagiga -iq affiksining qo'shilishidan yasalgan (qiyoslang: *yumshoq*). Lekin *qot* va *qattiq* so'zlarida o va a tovushlari orasidagi farq, shuningdek, *qattiq* so'zida bir t tovushining orttirilishi bu so'zning *qot* so'ziga aloqasini sezilarsiz holga keltirib qo'ygan. Natijada *qattiq* so'zi morfemalarga ajralmaydigan bo'lib qolgan.

II BOB

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z STRUKTURASINING SISTEM TAHLILI

2.1 Leksik sathning rivojlanishida sodda so‘zlar strukturasi

So‘zning struktural tiplari — so‘z yasashning yo‘llariga ko‘ra turlari bo‘lib, ularning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari, modellari xilma-xildir.

Sodda so‘zlar ikki xil, tub so‘zlar (yasalmagan so‘zlar) va yasama so‘zlar (affiks orqali hosil bo‘lgan so‘zlar).

O‘zbek tilida sodda so‘zlarning taraqqiyot yo‘li o‘zak, negiz va affikslarning hayot yo‘li bilan, ularning xususiyatlari bilan, shuningdek so‘z turkumlarining ba’zi tomonlari bilan bog‘lanadi. Quyida shunga doir ayrim nuqtalarni ko‘rib o‘tamiz [28,145].

Affiks orqali so‘z yasash o‘zbek tilida ilgari so‘z yasashning eng aktiv yo‘li bo‘lib keladi. -chi (-chilik), -li, -la (-lashtirish) kabi affikslar yordami bilan so‘z yasash bunga yorqin misol bo‘ladi. Bu hodisaning sababi mustaqillik davrida turmushdagi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, yuksalish bilan bog‘liq ravishda o‘zbek tilining rivoj topishi, uning ijtimoiy vazifasining kengayishidir. Hayotning taraqqiyoti natijasida yangi so‘zlarga talab kuchaydi, bu ehtiyoj o‘zbek tili so‘z yasash sistemasini o‘stirdi, boyitdi — juda ko‘p yangi so‘zlar paydo bo‘ldi. Bu so‘zlarning yasalişida rus tilidan kalkalash katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Suffiksal so‘z yasash hodisasi, ayniqsa ot va sifatlarda kuchli: suvoqchi, terimchi, kombaynchi, gazchi, vodoprovodchi, sutchi kabi.

Shakl yasovchi affikslar, ayniqsa so‘z o‘zgartiruvchilar, so‘z turkumlarini, ot va fe‘l gruppalarini farqlashda signalizatorlik vazifasini bajaradi. Lekin bunda shakl jihatdan bir xil bo‘lgan affikslar ham uchraydi. Masalan, -lar affiksi, bir tomondan, ot turkumining shakl yasovchisi va so‘z o‘zgartuvchisi, ikkinchi tomondan, fe‘lning tuslovchisi (Bolalar ko‘chatlarni ekdilar). Yasovchi affikslar ham, ko‘pincha ma‘lum gruppaning signali sifatida bo‘ladi. Masalan, -la affiksi

fe'llik belgisi (yasama fe'l). Bunda ikki holat bor: 1) affiks so'zga kategorial o'zgarish kiritadi, bir turkumni boshqa turkumga ko'chiradi, shu ko'chirishning vositasi sanaladi. Masalan, tinchlik (ot), mevali (sifat), o'g'itla (fe'l). 2) kategorial o'zgartirish kiritmaydi. Masalan, traktorch, ishchi (Lekin tarixiy planda bu sifatga «ko'chirish» bo'lgan. Bunda predmet ma'nosi ham, belgi ma'nosi ham bor, shaxs belgisi orqali ifodalangan: traktorch — traktor bilan ish qiladigan odam, ishchi — ish bilan shug'ullanadigan odam).

Affiks orqali yasash o'zakdan negiz yaratish yoki bir negizdan boshqa negiz hosil qilishdir. Bu ikki xil morfemaning qo'shilishidir (derivatsiya-affiks so'z yasashi). Demak, yasama so'z hosil qilish shunday ko'rinishlarga ega: 1. O'zakdan yasash (ter + im): birinchi derivatsiya (birinchi negiz). 2. Negizdan yasash (terim + chi): ikkinchi derivatsiya (ikkinchi negiz); terimchi + lik: uchinchi derivatsiya (uchinchi negiz). 3. Qo'shma o'zakdan yasash (sharshar, manmanlik, temir yo'lchi).

So'zning morfematik tahlilida uning umuman tarkibi, morfemalari aniqlansa, so'z yasash tahlilida so'z yasalma sifatida ikki qismga ajratib qaraladi: ter + im (yasovchi o'zak + yasovchi affiks), terim + chi (yasovchi negiz + yasovchi affiks): terim — yasama so'z, biroq terimchilik so'zga nisbatan — yasovchi negiz (birinchi yasovchi negiz). Terimchi+lik (terimchi — ikkinchi yasama negiz).

Ko'rinadiki, so'z yasash tahlilida so'zning shakl qismini tashkil qiladigan elementlar tekshirilmaydi: kattaroq, o'rtacha, oqish kabi ajratishlar so'z yasash tahlili emas, chunki bundagi affikslarda leksik ma'noni o'zgartirishdan ko'ra grammatik vazifani bajarish ustundir: bular grammatik shaklni ko'rsatadi, bu tusdagi affiksatsiya leksema hosil qilmaydi [24,95].

Affiksatsiya so'z yasashning eng unumli tipi bo'lsa ham, lekin uning unumsiz modellari ham bor. Masalan, -chi affiksi bilan yasash — eng aktiv, eng unumli, -na affiksi orqali yasash — kamunum, ko'r+ik, sevin + ch, tin + ch, tinch + i kabi yasashlar unumsizdir.

Boshqa tillardan kirgan yasovchilar, dastlab, olingan soʻzlarning tarkibida uchraydi (ikki xil morfemaning har biri oʻz yasovchi affikslarning qoʻllanish doirasi soʻz oʻzgartiruvchi affikslarnikiga nisbatan torroq. Masalan, deyarli hamma feʼl tuslanib, toʻla paradigmani hosil qiladi, lekin hamma feʼldan ham affiks orqali sifat yasalmaydi.

Shuningdek ayrim soʻz turkumlaridan yasash juda kam uchraydi: otlarda tashqi yasaliş (ot boʻlmagan soʻzlardan yasash) ham, ichki yasaliş (otning oʻzidan yasash) ham kuchli, bundan boshqa soʻz turkumlarida ichki yasaliş yoʻq hisob. Ot, sifat, feʼllar orasida bir-biridan yasaliş yaʼni, tashqi yasaliş kuchli, lekin son va olmoshlarning boshqa turkumdagi soʻzdan yasalmasligi asosiy holatdir. Olmosh va sonlardan feʼl yasash juda kam uchraydi (sizla, senla, sensira, sizsira, ikkilan, birlash) va boshqalar.

Yasovchi affikslarda polifunksionallik, polisemantiklik va omonimlik holati (omorfemalar) ancha keng tarqalgan. Masalan, -oq affiksi ot yasovchi (qurol oti: oʻroq, bajaruvchi shaxs oti: qaroq, jarayon oti: soʻroq), sifat yasovchi (oppoq, tarqoq) shaklida namoyon boʻladi. -chi affiksi: terimchi (otdan yasalgan), aʼlochi (sifatdan yasalgan), yuz mingchi (sondan yasalgan), manmanchi (olmoshdan yasalgan).

Ayrim affikslarning farqlanish holati urgʻu orqali ham bilinadi. Masalan, sizsiz (urgʻu oxirgi boʻgʻinda: toʻy sizsiz oʻtmaydi, -siz — yasovchi affiks) — sizsiz (urgʻu birinchi boʻgʻinda: seminarining rahbari Sizsiz, — siz — soʻz oʻzgartuvchi affiks; bu hol -siz affiksini siz olmoshidan ham farqlaydi).

Ayrim hollarda affiksning «ortiqcha» ishlatilish hollari uchraydi. Masalan, (bolani) erkaladi maʼnosida erkalatdi shakli ham qoʻllanadi (asosan dialektal shakl). Baʼzi affikslarning «ortiqchaligi» analogiya natijasida kelib chiqqan boʻladi. Masalan, yoqilgʻi (топливо)—yonilgʻi (горючий). yoq— oʻtimli feʼl, -il affiksi — majhul darajasi belgisi, -il affiksi — ot yasovchi, lekin yon feʼli bu oʻrinda -il affiksini olmasligi kerak edi (yon — oʻtimsiz feʼl), -il morfemasi oʻz vazifasiga ega emas. Demak yonilgʻi soʻzida -il affiksining qoʻllanishi yoqilgʻi soʻzining strukturasi analogiya yoʻli bilan kelib chiqqan.

Affikslardagi ko‘p ma’nodlilik hodisasi har xil xususiyatlarga ega, ba’zilarining o‘zaro munosabati sezilmas holga kelib, ular boshqa-boshqa affiks bo‘lib ketgan. Bunday har xillik affikslarning taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib turadi. Masalan, sifat yasovchi -li affiksi egalik ma’nosini anglatadi (o‘zak-negizdan anglashilgan predmetga egalik: portfelli, bolali kabi), ba’zan ortiqlik ma’nosini ham bildiradi (shu predmetga egalik bilan bog‘langan ortiqlik – gavdali- gavadasi nisbatan katta, yog‘li palov- yog‘i me’yordan ortiqroq). Sifat yasovchi -siz affiksi ham shunday (yog‘siz-yog‘i kam).

Demak bu affiksning ortiqlik (kamlik) ma’nosi semantik ko‘chirish, oshirish yo‘li bilan egalik (ega emaslik) ma’nosidan kelib chiqqan. Ichimli (choy), yurishli (yo‘l) misollarida ham shunday.

So‘z yasovchi affikslarning ma’no va vazifalarini tasvirlashda ilgaridan ikki xil yo‘l bor:

1. Alfavit tartibida bayon qilish. Masalan, -a: aylan + a, uyin + a (uyna), bur + a, yaltir + a; -v: qishla + v (qishlov), ishlav+v—ishlov, sayla + v — saylov, o‘qi + v — o‘quv, o‘lcha + v— o‘lchov, bura + v — burov (asbob oti); ko‘r + k (husn), tuga + l (tugallangan, mukammal), to‘pla+m, qatla+m va b. Bunday tahlilda, hamma so‘z turkumlari birgalikda bir butun sifatida qaralsa, so‘z yasovchi affikslar bilan so‘zlarning leksik-grammatik kategoriyalari orasidagi aloqa e’tibordan chetda qoladi, har xil affikslarni, (yasovchilardagi omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalarini) farqlash ko‘zda tutilmaydi. Bunday tahlilni har bir so‘z turkumi bo‘yicha ayrim-ayrim o‘tkazish ham mumkin. Demak bunday tasvirlashda har bir affiks alfavit tartibi bilan ayrim olinib, uning barcha xususiyatlari ko‘rsatiladi.

2.Ma’nosiga qarab bayon qilish. Bunday tahlilda har bir so‘z turkumining yasovchilari, dastlab, semantik asosda tasnif qilinadi, keyin har bir affiksning xususiyatlari qarab chiqiladi. Demak bunday tekshirishda sinonim affikslar bir o‘ringa to‘planadi (chunki tasnifda semantika asosga olinadi), boshqa-boshqa so‘z turkumiga kiradigan omonim affikslar turli o‘rinlarda qoraladi, bu holat bir so‘z turkumi doirasidagi omonim affikslarda ham saqlanadi.

Jahon tilshunosligida soʻz yasovchi affikslarning keng tarqalgan tasvirlash yoʻli semantik asosda bayon qilishdir. Misol uchun ot yasovchi affikslar:

1. Ot oʻzaklardan ot yasovchi affikslar: 1) shaxs oti yasovchilar (-chi: tunukachi; -dosh:maktabdosh); 2) oʻrin oti yasovchilar (-loq: oʻtloq, -lik: quruqlik); 3) belgi oti yasovchilar (-lik: bolalik); 4) predmet oti yasovchilar (-cha: kizilcha);

2. Feʼl oʻzaklardan ot yasovchi affikslar: 1) bajaruvchi shaxs oti yasovchilar (-in: yogʻin; -qin: toshqin; -qoq: qochqoq); 2) ish oti yasovchilari -im: terim; -v: ishlov); 3) harakat natijasi oti yasovchilar (-im: toʻplam; -n: yigʻin; -q: chiziq; -ma: yorma); 4) harakat quroli oti yasovchilar (-q: chopqi; -qich: qisqich); 5) harakat obʻyekti oti yasovchilar (-gi: kuydirgi, -qi yoqilgʻi) 6) oʻrin oti yasovchilar (-ma: qaynama, bostirma).

2.2 Konversiya usulining soʻz strukturasiga taʼsiri

Bir soʻz turkumining boshqa soʻz turkumiga yozilish va eshitilish jihatdan oʻzgarishsiz koʻchishi konversiya deyiladi. Konversiya soʻz yasallashining maxsus bir turi hisoblanadi.

-U boshqa soʻz turkumiga aylanadi.

-Uning maʼnosi oʻzgaradi.

Konversiya — soʻz shakllantiruvchi usul, ingliz tiliga xos, u tufayli koʻpincha soʻzlar tashqi va eshitilishi farq qilmasa ham, har xil maʼnoni bildiradi.

Konversiya yoʻli bilan yasalgan soʻzlarning koʻpchiligini feʼllar tashkil qiladi: chair - to chair, light - to light, free - to free, wet - to wet, down – to down va hokazo. Yuqorida keltirilgan misollardan feʼllar turli soʻz turkumlaridan, yaʼni otlardan, sifatlardan va ravishlardan yasallashi mumkinligi koʻrinib turibdi. Konversiya yordamida boshqa soʻz turkumlari, masalan, ot yasallashi mumkin: to run – run, to work – work, native – a native va hokazo. Konversiya hodisasi ingliz tilini oʻzbek tilidan ajratib turadigan uning xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ingliz tilida bu jarayon quyidagicha sodir bo'ladi:

Ot va fe'l to'g'ri kelishi mumkin:

Ot	Fe'l
answer (javob)	to answer (javob bermoq)
hand (qo'l)	to hand (qutqarmoq)
place (joy, o'rin)	to place (joylashtirmoq)
work (ish)	to work (io'lamoq)

Yoki sifat va fe'l:

Sifat	Fe'l
clean (toza)	to clean (tozalamoq)
empty (bo'sh)	to empty (bo'shatmoq)
free (ozod)	to free (ozod qilmoq)

Urg'uning joyi o'zgarishi

Bu holatda ot va fe'l shakli to'g'ri keladi, ammo ularning urg'usi farqlanadi. Odatda fe'lning urg'usi ikkinchi bo'g'inga tushadi, otda esa birinchi bo'g'inga tushadi.

Ot	Fe'l
----	------

conflict (ziddiyat)	to conflict (qarshi chiqmoq)
export (chet elga chiqarish)	to export (chetga chiqarmoq)
record (yozuv)	to record (yozib qo‘ymoq)
suspect (shubhali odam)	to suspect (shubhalanmoq)

Tovush almashishi

Bu holatda fe'l va otlar bir o'zakdan tashkil topgan va tovush almashishi oxirgi unli bilan farqlanadi. Odatda fe'lda u jarangli, otda esa jarangsiz.

Ot	Fe'l
advice [əd'vaɪ s] —maslahat	to advise [əd'vaɪ z] — maslahat bermoq
belief [bi 'li:f] — ishonch	to believe [bi 'li:v] —ishonmoq

Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash kompozitalar — qo'shma so'zlar yaratish bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik—leksemani hosil qiladi. So'z yasashning bu tipi ham o'zbek tilidagi aktiv yo'llardandir. Qo'shma so'zning qismlari, tarkibidagi qismlari, ayrim so'z (tub so'z yoki yasama so'z) tusida bo'ladi: bu element shu ko'rinishida boshqa kombinatsiyalarda o'zak yoki negiz vazifasida kela oladi. Lekin bu elementning ikki holati - ayrim so'zligi va qo'shma so'z tarkibida kelishi (mustaqil so'zligi va so'zning qismi bo'lishi) bir-biridan jiddiy farqlar bilan ajralib turadi. Qo'shma so'zning ko'pi tashqi tomondan «aniqlovchi-aniqlanmish» sxemasidagi so'z birikmasiga o'xshaydi, hatto shunday omonimik hollar ham

borki, shu shakldagi kompleksning qo'shma so'zmi yoki so'z qo'shilishimi ekanligi turli vositalar orqali aniqlanadi: bunda semantik-grammatik intonatsion vositalar farqlovchilik rolini o'ynaydi. Har holda omonimik ko'rinishlar ham to'la, aniq ajralib turish xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, baribir kompleksi hozirgi tilda —bir so'z (leksikalizatsiya). Lekin u aslida (shuningdek hozirgi tilda ajratilgan holda qo'llangan o'rinlarda) ikki so'zdir: bari (ega), bir (kesim). Birinchi holatda, tabiiy bir so'z — ikki o'zak morfemaning birikib ketishidan tug'ilgan bir so'z sanaladi, lekin u, genetik jihatdan qaraganda, grammatik aloqaga kirishgan ikki mustaqil so'zdir. Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no — bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish — grammatik strukturasining ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi: demak u bir so'zdir, uning qismlari orasida grammatik aloqa yo'q (lekin semantik aloqa bor), u har qanday so'z qo'shilmasida — gapda, so'z birikmasida — bir sintaktik vazifani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz, so'z birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida ma'lum qoidalar asosida hosil qilinadi. So'z birikmasidagi har bir qism, mustaqil so'z o'zaro grammatik aloqaga kirishgan bo'ladi, demak bu sintaktik hodisadir. Masalan, paxtaning guli: aniqlovchi + aniqlanmish. So'z birikmasi bilan qo'shma so'z orasidagi fonetik farqlanish sezilarli, jiddiy xarakterga ega emas: odatda, fonetik yaxlitlanish so'z birikmasida ham, qo'shma so'zda ham, asosan, bir tusda bo'ladi.

Tarixiy jihatdan qaraganimizda, affiksatsiya yo'li kompozitsiyadan tuzilgan: o'zak+o'zak+o'zak+affiks (yoki: affiks+o'zak): affikslar aslida mustaqil so'zlardan kelib chiqqan. Demak so'z yasalihi (so'z yasash yo'llari, modellari, ularning aktiv-passivligi va boshqalar) tarixan, til tarixining turli davrlariga ko'ra, o'sib-o'zgarib turuvchi hodisadir.

So'z qo'shib yasashga juda yaqin turgan yasash tiplaridan biri leksik-sintaktik yo'l bilan hosil qilishdir. Bunda yangi so'zning paydo bo'lishi so'z birikmasining, ayrim gaplarning, undagi elementlarning tamoman qo'shib-bitib ketib, bir butunlik hosil qilishi xarakterida bo'ladi. Masalan, holbuki (aslida: ega

va kesim), bari-bir (bari — ega, bir — kesim). Ko‘rinadiki, bunday yasash frazeologizm bilan ham bog‘liq bo‘lib, yangi so‘z yasash so‘z birikmalarini va gaplarni leksikalizatsiya qilish natijasida paydo bo‘ladi. Bu yo‘l bilan yasashda affiksatsiya ham, konversiya ham ishtirok eta oladi. Masalan, bola daladan qaytayotganligini eshitib, onasi juda sevindi.

Kalkalash (leksik kalka: boshqa leksik-semantik modeli asosida yangi so‘z hosil qilish) ham so‘z yasashning bir yo‘lidir. Masalan, tilchak (texnika termini) rus tilidagi “язычок” terminining o‘zbekcha kalkasidir (язык — til, -ок — kichraytirish affiksi: -chak). Kalkalash oddiy tarjima emas (bunda o‘sha so‘zga mos keladigan so‘z qo‘shiladi: лист — yaproq, рука — qo‘l, лицо — yuz), chunki kalkalashda yangi so‘z tug‘iladi.

Demak kalkalashda tushunchaning o‘zi boshqa tildan olinadi va o‘sha tilda shu tushunchani ifodalovchi so‘zga qarab yangi so‘z yasaladi, lekin bu yasashning materiali — morfemalari shu tilning o‘ziniki bo‘ladi: yangi so‘z boshqa tilning ta’siri bilan kelib chiqadi. Kalkalashdagi tarjima morfemalar bo’yicha tarjima qilishdir. O‘zbek tili leksikasining boyishida, ayniqsa, ilmiy terminologiyaning shakllanishida va rivojlanishida, rus tilidan olingan so‘zlarning, shuningdek kalkalashning ahamiyati juda katta. 1.Kalkalashning boshqacha ko‘rinishlari ham bor. Masalan, o‘zbek tilida bir qancha so‘zlar shu ma’noda qo‘llanadigan ruscha so‘zlarning ma’nolariga qarab, yangi ma’nolar olib, semantik jihatdan kengaygan (semantik kalka). Misollar: akkumulyator o‘tirib qoldi (o‘tirdi — цел, jonli so‘zlashuv nutqidan).

Fonetik yo‘l bilan so‘z yasash ikki hodisani ko‘zda tutadi: 1. So‘zning tarkibida fonetik o‘zgarish qilish orqali yangi so‘z yaratish. Masalan, tun va kun, bit (yarasi bitdi, ekin bitdi, ish bitdi—tugallandi) va but (tugal, fe’l va sifat), aka va uka. 2. Urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish yo‘li bilan yasash. Masalan, yangi — urg‘usi keyingi bo‘g‘inda: (sifat)—yangi (urg‘usi bosh bo‘g‘inga ko‘chgan): (ravish); hozir (tayyor) — hozir (hozir ketdi, u hozir keldi: ravish). Ko‘rinadiki, bunda leksik urg‘uning o‘z o‘rnini o‘zgartirishi — fonetik boshqalik so‘zning

ma'nosiga, kategorial turiga ta'sir qilib, yangi leksema hosil qilish vositasi bo'lgan.

Birinchi yo'l bilan yasash qadimgi hodisalardan bo'lib, hozirgi tilda qo'llanmaydi, lekin qadimda ham keng tarqalgan emas. Bu yo'lning asosiy xarakteri aslida shundan iboratki, predmet, hodisalar, harakatlar, ajralib-farqlanib borishi bilan ularning nomlari ham farqlana borgan. Masalan, bir so'z ham predmetning o'zini, ham uning harakatini bildirgan bo'lsa, keyinroq bular o'zakning fonetik tarkibini o'zgartirish orqali ikki so'zga aylangan (aka-uka, ko'r -ko'z).

Ikkinchi yo'l bilan yasash tub so'zlarni farqlash tarzida (yangi-yangi) uchramaydi hisob, u ko'proq nisbatan bir tUSDagi affikslarni yoki affiks va shu tUSDagi yuklamalarni ajratish, shu yo'l bilan so'zlarni farqlash xarakterida bo'ladi: suzma (ot, -ma: ot va sifat yasovchi)—suzma (fe'l:-ma: inkor belgisi), qizgina(-gina: erkalash belgisi)—qizgina (-gina: chegaralash yuklamasi)

2.3 Leksik sathning rivojlanishida qo'shma so'zlar strukturasi

Qo'shma so'zning bir turi tug'ilish jihatidan so'z birikmasi bilan aloqador, lekin ko'pi mavjud qo'shma so'zlarga analogiya yo'li bilan, qo'shma so'zning tayyor modeliga qarab hosil qilingan.

Qo'shma so'zlarda ham yasalganlikning umumiy belgilari— semantik va shakl bog'lanish saqlanadi, lekin bu aloqa turli sabablar natijasida, masalan, fonetik o'zgarish natijasida sezilmas holga kelishi ham mumkin (soddalanish hodisasi). Qo'shma so'z o'zining bir qancha xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Endi shularning asosiylarini ko'rib o'tamiz. Qo'shma so'zning tarkibidagi qismlarning o'zaro munosabati:

1.Ular orasidagi grammatik munosabat shu tipdagi so'z-birikmasiga qarab, tarixiy planda belgilanadi; demak sinxronik jihatdan qaraganimizda, orada bunday munosabat faraz qilinmaydi, chunki bu aloqa saqlangan bo'lsa, u kompleks so'z birikmasi bo'ladi, ikki so'z sanaladi. Qismlarning bog'lanish yo'llari, ularda bog'lanishning turli vositalarining ishlatilishi ham bir xil emas:

amorf holda (affikssiz) bog'lanish, affiks, yordami bilan bog'lanish . Affikssiz bog'lanish eng qadimgi, sodda yo'l bo'lib, u jonli — so'zlashuv nutqida ko'p uchraydi.

2. Qismlarning semantik munosabati har xil — xoslik munosabati, o'ringa munosabat, biror belgiga munosabat, miqdorga munosabat, harakat va ob'yekt munosabati. Bunday munosabatning turi ko'p: (bular har bir turkumning o'z ichida tahlil qilinadi) birinchi qism ikkinchisini semantik jihatdan oydinlashtiradi —chegaralaydi, bu bilan bir jinsning ichidagi qismlar — tur ma'nosi ham kelib chiqadi. Bularda ma'nolarning o'zaro chatishish hodisasi ham bor [22,68].

Qismlarning ma'no munosabati butun kompleksning—tarkibning material tomoniga, so'z turkumiga, ham bog'liq. Masalan, xoslik (keng ma'noda) bildirishda yasalish ot + ot modelida (apple tree, qo'l arra,), belgiga munosabat bildirishda sifat +ot modelida, miqdorga munosabat bildirishda son +ot modelida bo'ladi.

Ba'zan qo'shma so'zlar tashqi tomondan bog'liq — turg'un, barqaror birikma xarakteriga ega bo'ladi. Qo'shma so'zning leksik-semantik (murakkab tushunchani bir butun holda ifodalovchi) va grammatik butunligi, tilning tayyor materiali sifatida bo'lishi, struktura va semantik vazifa tomonidan ayrim so'z bilan bo'lgan yaqinligi uni turg'un birikma tusiga kirsa ham, lekin bular tilning nominativ vazifani bajaradigan bir yaxlit elementidir. Demak, tashqi tomondan turg'un birikma tusiga egalik ularning bir tomoni bo'lib, ular bu holatda ham qo'shma so'z bo'ladi.

Turg'un birikma odatda ko'chgan ma'noni ko'rsatadi ,lekin bunday ko'chish turg'un birikma bo'lishning sharti sanaladigan doimiy belgi emas. Ular so'z birikmasidan shu tomoni bilan ham ajraladi: so'z birikmasi bunday xususiyatga ega emas. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, qo'shma so'zning yasama so'z bilan ham, so'z birikmasi bilan ham , shuningdek turg'un birikmalar bilan ham aloqasi bor.

3. Qo'shma so'zning asosiy qismi ikki qismlidir. Bundagi har bir qism qanday tusda bo'lishiga (o'zak + o'zak, o'zak + negiz va b.), bu qo'shilishda ayrim

soʻzlik holatidan farqlanishiga va boshqa xususiyatlariga qaramay, mustaqil leksemalik holati bilan munosabatini saqlab turadi, u soʻz tusida boʻladi. Ikkidan ortiq soʻzdan tuzilgan qoʻshma soʻzlar, umuman, kam uchraydi, shuningdek unga (juft soʻzga ham) affiks qoʻshish yoʻli bilan (qoʻshma oʻzakdan) soʻz yasash hodisasi ham keng tarqalgan emas. Soʻzning tarkibi uzaygan sayin uning qisqalikka intilish anʼanasi bu oʻrinda ham seziladi (documentary drama — docudrama, sariq yogʻ — sariyogʻ).

Qoʻshma soʻzning tarkibida uchraydigan fonetik oʻzgarishlar (qismlarning tutashgan oʻrnidagi turli oʻzgarishlar, tovush tushishi), umuman olganda, affiksasiyadagi fonetik oʻzgarishlar bilan oʻxshash, lekin bunday oʻzgarishlarning doirasi qoʻshma soʻzlarda nisbatan tor.

Qismlarning soni va boshqa ayrim xususiyatlar jihatidan qoʻshma feʼllar (koʻmakchi feʼlli turi) boshqacharoq holatga ega: uch (baʼzan ortiq) qismli boʻlish bularda nisbatan koʻproq uchraydi: aytib bera qoldi, soʻzlab tura berdi, aytib bera boshladi (grammatik jihatdan ularning hamma koʻrinishlari ham, baribir, ikki qismli boʻladi): koʻmakchi feʼllarning asosiy qismi oʻz mustaqil soʻzlik holati bilan boʻlgan bogʻlanishini yoʻqotib, soʻz shakli (analitik shakl) hosil qilish vazifasini bajarishga oʻtgan. Bu kompleksdan odatda affiksatsiya yoʻli bilan soʻz yasalmaydi.

Qoʻshma soʻzning maʼnosi undagi qismlarning semantik xususiyati va ichki munosabatning xarakteriga bogʻliq: qismlar, odatda, oʻz asl maʼnosi — mustaqil holati bilan aloqasini yoʻqotmaydi. Masalan, oq oʻrik (oʻrikning turi), qoʻl arra, uch burchak (termin). Bunda maʼno umumlashish jihatidan qaraladi. Masalan, qoʻl arra va qoʻl soat (keng maʼnoda: xoslik bildiradi, holbuki, bular semantik jilosi bilan farqlanadi), muz yorar, tovon teshar (harakat va uning obʼyeksi): ot + feʼl: it + qarash: Boy menga it qarash qildi (Gʻafur Gʻulom), harakat va uning belgisi: ravish vazifasidagi ot + harakat oti (bunday qoʻshilishlarni koʻrsatishda ot, sifat, feʼl kabi, soʻzning leksik-grammatik kategoriyasini koʻrsatadigan, terminlar shartli ravishda — oʻsha soʻzlarning mustaqillik holatidagi turkumiga qarab ishlatiladi, holbuki bular qoʻshma soʻz tarkibida ayrim soʻz emas, balki soʻzning qismidir). Koʻrinadiki, qoʻshma soʻzning maʼnosi qismlarning turi qaysi leksik-grammatik

kategoriyaga kirishi bilan ham bog'liq [21,147].

4.Qo'shma so'zlar ot, sifat, son, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. Qo'shmalik holati yordamchi so'zlarda ham uchrab qoladi.

5.Qo'shma so'z yasash tez rivojlandi, chunki turmushdagi, ongdagi ulkan o'zgarishlar natijasida yangi so'zlarga talab tug'ildi.

6.Qo'shma so'zning qismlari o'z turg'un tartibiga ega. Otlarda ular, odatda, aniqlovchi + aniqlanmish tartibida o'rinishgan bo'ladi. Masalan, ingliz tilida tooth brush, o'zbek tilida esa qizil olma shaklida namoyon bo'ladi.

Qo'shma so'zning yuqorida, asosan, bir turini (keng ma'noda «aniqlovchi + aniqlanmish» shaklida hosil bo'lgan turni) — aniqlovchili qo'shma so'zlarni ko'rib o'tdik. Qo'shma so'z termini, bundan tashqari, juft so'zlarni (ota-ona, qovun-tarvuz kabi), qisqartma so'zlarni (NATO—North Atlantic Treaty Organization, EAGLE —Elevation Angle Guidance Landing Equipment, USA —United States of America, BBC— British Broadcasting Corporation, BMT — Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi), shuningdek reduplikatsiya, so'z takrori yo'li bilan hosil qilingan so'zlarni (kuku: qush kabi) ham o'z ichiga oladi. Juft so'zlar va reduplikatsiya yo'li bilan yasalgan so'zlar qo'shma so'zning boshqa turlaridan ancha keskin farqlanadi.

So'z birikmalarining va qo'shma so'zlarning qisqarishidan ham yangi so'z hosil bo'lishi mumkin. Bu holatni ingliz tili miqyosida kuzatamiz:

a) AWOL (Absent Without Official Leave), RAF (Royal Air Force), RAND (Research and Development Corporation), UNESCO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization), AFCEA (Armed Forces Communications and Electronics Association);

b) qo'shma so'zlar: STOL (Short Take-Off and Landing) + port – STOLport, USAF (United States Air Force) + man – USAFman, MATS (Military Air Transport Service) + man – MATSman;

Ingliz tilida bosh harflardan tuzilgan abbreviaturalardan yana quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: DIAFYO – Did I Ask For Your Opinion?, GMAB – Give Me A Break, GMTA – Great Minds Think Alike, HAND – Have A Nice Day, LMK – Let Me Know, OV – Opinions Vary, PMFJI – Pardon Me For

Jumping In, RIP – Rest In Peace, RTM – Read The Manual, DVD– DigitalVideodisk, CD-ROM – Compact Disk Read-only Memory, Web –World Wide Web va boshqalar.

Abbreviatsiya yo‘l bilan so‘z yasash o‘zbek tilining mustaqillik davrida erishgan yutuqlaridandir. Bunday so‘z yasash yo‘li ixchamlilik bilan xarakterlanadi. Bular qo‘shma so‘zning qisqartirib biriktirish yo‘li bilan yaratilgan bir ko‘rinishi bo‘lib, bir so‘z kabi qo‘llanib, o‘zi maxsus affikslar ham oladi. Ingliz tilidan olingan abbreviaturalar o‘zbek tilini ham boyitib kelmoqda. So‘z yasashning bu turi ot turkumiga xosdir.

O‘zbek tilida ruscha-internatsional so‘zlar qatlamining o‘sa borishi, leksikani rivojlantirish bilan birga, xalqlarni va tillarni yaqinlashtirib, qisqartma so‘zlarning to‘la shaklining ham o‘zlashib, natijada, bunday leksemalarning qo‘shma so‘z sifatida o‘qilishiga yo‘l oladi. Masalan, O‘zTAG (O‘zbekistan telegraf agentligi), O‘zdavnashr (O‘zbekiston davlat nashriyoti), Avtozavod (avtomobil zavodi), SamDChTI (Samarqand davlat chet tillar instituti).

Takrorning ko‘rinishlari ko‘p. Bunda dastlab ikki narsa farqlanadi: odatdagi takror va ikkilanish. Oddiy takror ma‘noni kuchaytirish, intensivlikni, emotsional buyoqni bildirish uchun xizmat qiladi. Bunda ba‘zan ikki marta takrorlash ham uchraydi [39,67]. Masalan, *Alone, alone, all, all alone. Alone in a wide, wide sea*. O‘zbek tilida esa quyadagi gapni misol keltirishimiz mumkin, *Tezroq, tezroq yur*. Endi “ikkilanish”ga misollar keltiramiz: U tez-tez gapirdi. He was thinking over it againand again. Ushbu misollar harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi ma‘nolarni ifodalaydi.

Yana ayrim misollarni solishtiramiz: Tur-tur, ketamiz,— dedi akasi («Ertak»). Bir ozdan keyin, erta tongda, tur-tur boshlandi (tur-tur: turish). Aya, nega bibip kelyapti? («Mushtum»); bibip, bipbip: avtobus (bolalar nutqida).

Anglashiladiki, reduplikatsiya, so‘z takrori, o‘zbek tilida ikki xil xarakterga ega: so‘z yasash vositasi va grammatik vosita. U ko‘pincha grammatik vazifani bajaradi: predmetning ko‘pligi, belgining oshirilishi,

ma'noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi va uzoq davom etishi (so'z yasash vazifasini bajarishi ayrim hollarda uchraydi).

Odatdagi takror va ikkilanish (taq-tuq kabi) farqli bo'lib, so'z yasash hodisasi bilan keyingisigina bog'lanadi. Ikkilanish, umuman, so'z qo'shishning bir ko'rinishi, lekin u aniqlovchili qo'shma so'zdan (masalan, besh yillik) tarkibining takrorlangan bir xil elementdan iborat bo'lishi (odatdagi qo'shma so'zda bu hol yo'q) va bu elementlar asl bog'lanish yo'li jihatidan farqlanib turadi.

Takror ikki xil: to'la takror (katta-katta kabi) va qisqa takror (kap-katta kabi). Qisqa takror so'z yasamaydi, balki so'z formasi hosil qiladi (qizil—qip-qizil kabi). Takror orqali qo'shma so'z hosil qilish to'la takrorda uchraydi. Gap boshida takror: *The man behind the war. The man who had engineered it.*

II bob bo'yicha xulosa

So'z yasash hodisasining so'zning leksik-grammatik kategoriyalari (so'z turkumlari) bilan aloqasi uning bu kategoriyalarga ko'ra farqlanishida, qo'llanish doirasining har xilligida aniq ko'rinadi: yasovchi affikslarning ko'pi so'zga kategorial o'zgartirish kiritadi: bir turkumdan boshqa turkumga ko'chiradi (bu hodisa tashqi yasaliş sanaladi; otdan sifat yasash, sifatdan ot yasash, fe'ldan ot yasash, sifat, otlardan fe'l yasash kabi); ichki yasaliş (turkumni o'zgartirmay yasash, tunuka + chi kabi) nisbatan kam tarqalgan bo'lib, u, asosan, ot kategoriyasi bilan chegaralandi; abbrevatsiya, qisqartirish yo'li bilan hosil qilish ham otlarga xosdir; konversiya, turkumni ko'chirish, tashqi yasaliş xarakteriga ega; ot, sifat va fe'llarda affiksatsiya ham, kompozitsiya ham keng qo'llanadi, sonlarda esa affiksali yasaliş uchramaydi.

Ingliz tilidan olingan so'zlar ichida abbreviaturalar ham bor, bular ham o'zbek tilini boyitib kelmoqda. O'zbek tilida ruscha-internasional so'zlar qatlamining o'sa borishi, leksikani rivojlantirish bilan birga, xalqlarni va tillarni yaqinlashtirib, qisqartma so'zlarning to'la shaklining ham o'zlashib, natijada, bunday leksemalarning qo'shma so'z sifatida o'qilishiga yo'l oladi. O'zTAG

(O‘zbekistan telegraf agentligi), O‘zdavnashr (O‘zbekiston davlat nashriyoti), Avtozavod (avtomobil zavodi), SamDChTI (Samarqand davlat chet tillar instituti), ingliz tilida bosh harflardan tuzilgan abbreviaturalar ham bor: DVD (DigitalVideodisk), CD-ROM (Compact Disk Read-only Memory), Web (World Wide Web) va hokazo.

Qo‘shma so‘z, sodda so‘zlar kabi, tilning bir birligi bo‘lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz, so‘z birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida ma’lum qoidalar asosida hosil qilinadi. So‘z birikmasidagi har bir qism, mustaqil so‘z o‘zaro grammatik aloqaga kirishgan bo‘ladi, demak bu sintaktik hodisadir. Masalan, paxtaning guli: aniqlovchi + aniqlanmish. So‘z birikmasi bilan qo‘shma so‘z orasidagi fonetik farqlanish sezilarli, jiddiy xarakterga ega emas: odatda, fonetik yaxlitlanish so‘z birikmasida ham, qo‘shma so‘zda ham, asosan, bir tusda bo‘ladi.

Tarixiy jihatdan qaraganimizda, affiksatsiya yo‘li kompozitsiyadan tuzilgan: o‘zak+o‘zak+o‘zak+affiks (yoki: affiks+o‘zak): affikslar aslida mustaqil so‘zlardan kelib chiqqan. Demak so‘z yasalihi (so‘z yasash yo‘llari, modellari, ularning aktiv-passivligi va boshqalar) tarixan, til tarixining turli davrlariga ko‘ra, o‘sib-o‘zgarib turuvchi hodisadir.

So‘z qo‘shib yasashga juda yaqin turgan yasash tiplaridan biri leksik-sintaktik yo‘l bilan hosil qilishdir. Bunda yangi so‘zning paydo bo‘lishi so‘z birikmasining, ayrim gaplarning, undagi elementlarning tamoman qo‘shilib-bitib ketib, bir butunlik hosil qilishi xarakterida bo‘ladi. Masalan, holbuki (aslida: ega va kesim), bari-bir (bari — ega, bir — kesim).

Juft so‘zlardagi qismlarning o‘zaro fonetik munosabatida shunday hodisani ko‘ramiz: ularning bir turida bir-biriga ohangdosh bo‘lish—qofiyalanish an’anasi bor. Buning natijasida qismlarda fonetik o‘zgarish yuz berishi ham mumkin: bir elementning fonetik o‘zgarishi fonetik holatga moslashishdan tug‘iladi.

III BOB

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z STRUKTURASINING O'ZAK VA AFFIKSAL MORFEMALAR ASOSIDAGI SISTEM TAHLILIDA BO'G'INNING AHAMIYATI

3.1 O'zbek tilida bir bo'g'inli so'zlarning tahlili

Tilshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri etimologiyadir. U so'zlarning kelib chiqishini va tarixini o'rganadi, aniqlaydi, fanga ma'lum qiladi. Bu, albatta, murakkab va qiyin jarayondir. Chunki etimologiya aniq manbalarga, ilk qo'lyozmalarga, ilmiy tadqiqotlarning xulosalariga asoslanadi.[20,70].

Bir bo'g'inli yoki tub so'zlarning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Bir bo'g'inli so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tilida undoshlar bilan boshlanadi.

2. Asl turkiy so'zlarning ko'pchiligi bir bo'g'inli so'zlardan iboratdir.

3. Bugungi kunda ba'zi tub so'zlar bir bo'g'indan iborat emas, negaki tarixiy qo'shimchalar tub so'z tarkibida qotib qolgan. Masalan: *pichoq* so'zini olib qaraylik, bu so'z oldin *pich* bir bo'g'inli tub so'z bo'lgan. Keyinchalik *pich+oq* tarzida qo'shimcha ham qotib qolib tub so'zga aylangan.

Bir bo'g'inli o'z qatlam - o'zbek tili leksikasining umumturkiy so'zlar va sof o'zbek so'zlaridan iborat qismlari.

1. Umumturkiy so'zlar o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy biriklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Masalan, *bosh* (o'zb.) – *bas* (qoz.qoraq.) – *bash* (qirq.,turkm.); *til* (o'zb.,qoz.,qirq.) – *dil* (turkm.,ozarb.,gagauz.); *tog'* (o'zb.) – *too* (qirg'.) – *tav*, *tau* (qoraq,qoz.) – *dag'* (turkm., ozarb.) kabi.

O'zbek tili leksikasidagi umumturkiy so'zlarning o'ziga xos fonetik va semantik belgilari bor.

Fonetik belgilari: 1) so'zlarning ko'pchiligi bir yoki ikki bo'g'inlidir. Bir bo'g'inli so'zlar: *qo'l*, *ko'z*, *bosh*, *tosh*, *bir*, *uch*; ikki bo'g'inli so'zlar: *ikki*, *olti*,

oltin, ota, ona va boshqalar. Uch bo‘g‘inli so‘zlar juda kam: *qo‘rg‘oshin, qumursqa, yigirma* kabi; 2) so‘z yoki bo‘g‘in boshida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi; 3) so‘z oxirida undosh tovushlar yonma-yon qo‘llanishi mumkin, ammo bu hodisa juda kam uchraydi: *ort, ost, ust, to‘rt, qirq* kabi; 4) ikki bo‘g‘inli so‘zlarning birinchi bo‘g‘ini to‘la ochiq (o-na, o-ta), boshi yopiq (ku-mush, bo-la), oxiri yopiq (ol-tin, o‘r-dak), to‘la yopiq (bay-ram, bay-roq), ikkinchi bo‘g‘ini esa boshi yopiq (o-ta, o-na) va to‘la yopiq (ol-tin, ku-mush, si-gir) strukturali bo‘ladi; 5) ikkinchi bo‘g‘in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugash holatlari keng tarqalgan: *ik-ki, et-ti, bo-la, ar-pa, bol-ta* kabi; e) so‘z tarkibida ikki unli yonma-yon kelmaydi; f,h,j,j,s undoshlari esa umuman qo‘llanmaydi; 6) r,l,v,ng undoshlari so‘z boshida uchramaydi; 7) e(e),o‘ unlilari so‘z oxirida ishlatilmaydi (ayrim undov so‘zlar bundan mustasno); 8) urg‘u ko‘pincha so‘z oxiriga tushadi.

Semantik belgilari: umumturkiy so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’nodir: *bosh* 1) «odamning boshi», 2) «ko‘chaning boshi», 3) «ishning boshi», 4) «bosh oshpaz»; *ko‘z* – 1) «odamning ko‘zi», 2) «uzukning ko‘zi», 3) «taxtaning ko‘zi», 4) «derazaning ko‘zi» kabi.

Morfologik belgilari: 1) umumturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tilining barcha so‘z turkumlarida uchraydi; 2) turlanadi va tuslanadi; 3) o‘zak va affiks morfemalar erkin va standart bo‘ladi: *ko‘zim, ko‘zing, ko‘zi, ko‘zni, ko‘zning, boraman, borasan, boramiz* kabi; 4) so‘z tarkibida old qo‘shimchalar qo‘llanmaydi;

2. Sof o‘zbek so‘zlari - o‘zbek tilining o‘zida yasalgan leksemalar. Ular o‘z qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini tashkil qiladi. Bunday yasallashning quyidagi turlari bor:

a) *semantik usul* – ma’no taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi leksemaning yuzaga kelishi: *ko‘k* («rang») – *ko‘k* («osmon»), *yupqa* (sifat) – *yupqa* (ot: «ovqatning bir turi») kabi;

b) *affiksatsiya usuli*. Bunda o‘zak va affikslar turli til materiallari bo‘lishi mumkin, ammo ularning qo‘shilishi o‘zbek tili tarkibida yuz beradi, o‘zbek

tilining soʻz yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama soʻzlar oʻzbek tilining oʻz qatlami birligi sanaladi. Masalan: *bosh* (umumturkiy)+ «-la» (oʻzb.)-*boshla* (oʻzb.), *temir* (umumturkiy)+ «-chilik» (oʻzb.)-*temirchilik* (oʻzb.), *jang* (f-t.)+«-chi» (oʻzb.)- *jangchi* (oʻzb.), *madaniyat* (ar.)+«-li» (oʻzb.)-*madaniyatli* (oʻzb.), *obuna* (r-b.)+«-chi» (oʻzb.)-*obunachi* (oʻzb.), *axta* (moʻgʻ.)+«-chi» (oʻzb.)-*axtachi* (oʻzb.), «be-» (f-t.)+*bosh* (umumturkiy)-*bebosh* (oʻzb.)+ «-lik» (oʻzb.)-*beboshlik* (oʻzb.), *bil* (f-t.)+ «-im» (oʻzb.)-*bilim* (oʻzb.)+ «-don» (f-t.)-*bilimdon* (oʻzb.) kabi.

Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshgʻariy XI asrda yashab ijod etdi. Uning «Devonu lugʻotit turk» asari turkiy tillarni oʻrganishda asosiy manbalardan biridir. Unda Mahmud Qoshgʻariy har bir soʻzning qaysi qabilaga tegishli ekanini, soʻzlarning qadimgi va hozirgi variantlarini, maʼno va shakllariga doir xususiyatlarini, talaffuzda qabilalar orasidagi moslik va farqlarni har tomonlama aniqlab chiqdi. Bu haqda olimning oʻzi «Men turklar, turkmanlar, oʻgʻizlar, chigillar, yagʻmolar, qirqizlar shaharlarini, qishloq va yaylovlarini koʻp yillar kezib chiqdim, lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim, har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim», deb yozadi [17, 66].

Darhaqiqat, u turkologiyada, soʻzlar etimologiyasi, soʻz yasalishi va har-xil soʻz turkumi yasovchi qoʻshimchalar haqida birinchi marta qoidalar tuzdi. Ularga qanday amal qilishni ham koʻrsatdi. Uzoq tekshirishlar natijasida har bir soʻzning etimologiyasi, soʻzda ayrim davrlarda yuzaga kelgan fonetik va semantik oʻzgarishlar talaffuzda qabilalar tilidagi farq va boshqa xususiyatlarni aniqladi. Mahmud Qoshgʻariy mazkur devonda soʻzlarning maʼnosini izohlar ekan, ulardagi turli tuman xususiyatlarni ham farqlab berishni zarur topdi va soʻzlar tavsifini berish jarayonida bunga toʻliq erishdi ham. Hozirgi tilshunoslar etimologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarda toʻrt asosiy prinsipga asoslanadilar: 1) geneologik, 2) fonetik, 3) morfologik, 4) semantik. Mahmud Qoshgʻariy ham aynan shu prinsiplar doirasida ish yuritdi. U har bir tovush ustida maxsus

tekshirish olib bordi, tilda harf tushishi, almashinish, singish singari qoidalar borligini birinchi bo'lib aniqladi: «Tub so'zlarda o'zgarishlar kam bo'ladi. So'zlardagi o'zgarishlar harflarda, ba'zi harflarning almashuvida, tushuvidadir. Masalan, «yoy» bilan boshlanadigan ot va fe'llarning bosh harfini o'g'iz va qipchoqlar «a» yoki «j» ga aylantiradilar. Shunga o'xshash yana ko'pgina so'zlar bor. Men ularning hammasini aytib o'tirmadim» Demak, Mahmud Qoshg'ariyning mazkur fikri barcha turkiy qabilalar tillariga, ya'ni barcha tub turkiy tillarga tegishli bo'lgan.

Darhaqiqat, buni uning o'zi ham ta'kidlaydi: «Hamma turkiy tillarda ham shu yozilgan qoidalar asosdir» [17,5]. Uning bu ilmiy qarashlari uch katta sheva (o'g'iz, qipchoq va qorlug' -chigil) negiziga asoslangan o'zbek tiliga ham tom ma'noda taalluqlidir. Buni biz quyida bir bo'g'inli so'zlar etimologiyasi masalasini o'rganish jarayonida ko'rib o'tamiz.

3.2 Ingliz va o'zbek tillari so'z tuzilishida bo'g'inning ahamiyati

Bo'g'in bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasidir. Masalan: *ona(o-na)*, *ota(o-ta)*, *bola(bo-la)* kabi. Bo'g'in nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik (ba'zan bir so'zga teng) segment birligidir. Fonologik nuqtai nazardan bo'g'in *sillabema* deyiladi, uni o'rganadigan soha esa sillabika deb nomlanadi. Bo'g'in unlisiz tuzilmaydi, shuning uchun unli tovush bo'g'inning markazi hisoblanadi. U undoshlarni o'ziga tortib, bir havo zarbi bilan aytiladigan fonetik bo'lakni (bo'g'inni) hosil qiladi. Undoshlar o'zicha bo'g'in yasamaydi. Ular unlidan oldin kelganda kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi; *kitob* so'zidagi "ki-" bo'g'ini boshida kelgan "k" undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelganda, kuchli boshlanadi, so'ng kuchsizlanib tugaydi: *kitob* so'zidagi "-tob" bo'g'ini oxirida kelgan "b" undoshi shunday. Ba'zan ikki bo'g'in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: *muddat (mud-dat)* kabi. Bu hodisa geminatsiya sanaladi. Bunda ikkala "dd" bir tovushdek talaffuz etiladi, binobarin, kuchli boshlanib, kuchli tugaydi, oralig'ida esa bir oz pasayish kuzatiladi. Bular *ikki balandlikka ega*

undoshlar sanaladi. Demak, bo‘g‘in tuzilishida undoshlar kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakterida bo‘ladi. Shunga ko‘ra bo‘g‘in uch qismga bo‘linadi; 1) bo‘g‘in boshi- bo‘g‘in yasovchi tovushning (unlining) balandligigacha bo‘lgan qism; 2) bo‘g‘in markazi (bo‘g‘in balandligi); 3) bo‘g‘in markazidan keyingi qism (bo‘g‘in balandligidan so‘nggi qism).

3.3 Hozirgi o‘zbek tilida bir bo‘g‘inli so‘zlarning ko‘makchi fe’lga aylanish jarayoni tahlili

Hozirgi o‘zbek tilida bir bo‘g‘inli so‘zlarning butunlay ko‘makchi fe’lga aylangan (mustaqil ma’nosini yo‘qotib, faqat ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llanadigan) birorta ham fe’l yo‘q. Ayrim mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llanadi va turli-tuman ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bir bo‘g‘inli so‘zlar quyidagilar: boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bit (bitir), ol, ber, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, sol, tush, o‘l, o‘t, et, ko‘r, qara, boq, yoz. Bu ko‘makchi fe’llarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan birga ular uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar ham bor.

Ko‘makchi fe’llar asosiy (yetakchi) fe’lga asosan –(i) va –a,-y ravishdosh yasovchilari orqali birikadi: yozib oldi, yoza boshladi, ishlay tur kabi. Ba’zi ko‘makchi fe’llar ravishdoshning har ikki turiga birika olsa, ayrimlari faqat –(i)b yoki –a,-y affiksli ravishdoshga birikadi. Masalan, ol, ber, tur ko‘makchi fe’llari ravishdoshning har ikki turiga, boshla, yoz ko‘makchi fe’llari esa –a, -y affiksli ravishdoshga, bo‘l, tashla ko‘makchi fe’llari –(i)b affiksli ravishdoshga birikadi: yozib ber, yoza ber, yozib ol, yoza ol, yozib tur, yoza tur, yoza boshladi, ishlay boshladi, yiqila yozdi . Ravishdoshning faqat –a,-y affiksli turiga birikadigan ko‘makchi fe’llar uchta: yoza boshla, yoza tur, bita yozdi.

Ayrim ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lga grammatik formasiz ham birikadi. Bunday hollarda yetakchi va ko‘makchi fe’llar bir xil formada bo‘ladi: yozdi-oldi, aytdi-qo‘ydi, ayt-qo‘y, ketsin-qo‘ysin kabi. Ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lga

ravishdosh formasi bilan birikkanda, tuslovchi formantlar ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi: yozib oldim, yozib olsin, yozib olsang, yozib olmoqchi kabi.

Yetakchi va ko‘makchi fe’ldan tashkil topgan birikuvlarda ko‘makchi fe’l birdan ortiq bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ham har bir ko‘makchi fe’l ravishdosh formasi orqali birikadi: aytib berib tur, aytib berib tura qol. Birdan ortiq ko‘makchi fe’lli birikuvlar ham ikki komponentga – yetakchi va ko‘makchi komponentga bo‘linadi. Masalan, yozib berib tur birikuvida yozib –yetakchi komponent, berib tur –ko‘makchi komponent.

Yetakchi va ko‘makchi fe’ldan tashkil topgan birikuvlar uyushib kelgan hollarda birdan ortiq yetakchi fe’lga ko‘makchi fe’lning bir marta qo‘llanish hollari ham uchraydi: O‘n yoshidan beri o‘qitib, edirib, kiydirib kelaman (A.Qodiriy).

Ko‘rib o‘tganimizdek, ko‘makchi fe’llarning har biri o‘zi birikib kelgan ravishdosh formasidagi fe’lning (asosiy fe’lning) ma’nosiga turli qo‘shimcha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ko‘makchi fe’llar harakatning turlicha harakteristikasini ko‘rsatuvchi, shuningdek, turli modal ma’nolarni ifodalovchi formalarni yasash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida butunlay ko‘makchi fe’lga aylangan (mustaqil ma’nosini yuqotib, faqat ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llanadigan) fe’l yo‘q. Ayrim mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llanadi va turli-tuman ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko‘makchi fe’l bog‘lanib kelgan mustaqil fe’l yetakchi fe’l deb ataladi: *aytib berdi* (*aytib* — yetakchi, *berdi* — ko‘makchi), *ko‘rib koldi* (*ko‘rib*— yetakchi, *qoldi*— ko‘makchi), *sezdirib qo‘ydi* (*sezdirib* — yetakchi, *qo‘ydi* — ko‘makchi) va hokazo.

Ko‘makchi fe’llarning har biri o‘ziga hos ma’no va boshqa hususiyatlarga ega. Lekin ular uchun umumiy holatlar ham bor.

Ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’l bilan asosan -(i)b yoki -a, -y ravishdosh yasovchilari yordamida birikadi. Ba’zi ko‘makchi fe’llargina yetakchi fe’l bilan grammatik forma yordamisiz birikadi. Ko‘makchi fe’l yetakchi fe’l bilan ravishdosh formasi orqali birikkanda, tuslovchi formantlar ko‘makchi fe’lga

qo‘shiladi. Yetakchi fe’lga grammatik forma yordamisiz birikkanda esa yetakchi va ko‘makchi fe’l bir xil formada bo‘ladi: *yozib oldim, yozib olding, yozib oldi; yoza oldim, yoza olding, yoza oldi; yozdim-oldim, yozding-olding, yozdi-oldi* kabi.

Ba’zi ko‘makchi fe’llar, keltirilgan misoldagi kabi, yetakchi fe’lga har uch formada birikadi, ba’zilari esa faqat ravishdosh formasi yordamida birikadi: o‘qib *chiqdi, yoza boshladi*. Bulardagi *chiq, boshla* ko‘makchi fe’llari yetakchi fe’l bilan o‘qidi-*chiqdi, yozdi-boshladi* formasida birikmaydi.

Hozirgi o‘zbek tilida ko‘makchi fe’llarning asosiy qismi yetakchi fe’l bilan -(i)b ravishdosh yasovchisi orqali birikadi. Yetakchi fe’lga faqat -a, -y ravishdosh yasovchisi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l uchtagina: *boshla, bil, yoz (ayta boshladi, yoza bildi, to‘kila yozdi)*.

Yetakchi fe’l bilan ravishdoshning har ikki turi yordamida birika oladigan ko‘makchi fe’llar -(i)b affiksi yordamida birikkanda boshqa ma’no, -a, -y affiksi yordamida birikkanda boshqa ma’no ifodalaydi. Qiyoslang: *yozib oldi — yoza oldi, kelib qoldi — kela qoldi, aytib ko‘r — ayta ko‘rma*.

Ko‘makchi fe’llarning ba’zilari bir ma’noli, asosiy qismi esa birdan ortiq ma’nolidir. Birdan ortiq ma’noli ko‘makchi fe’llarning qaysi ma’noda qo‘llangani gapda, kontekstda reallashadi. Qiyolaymiz, *Sabr qil, xotin, yeb turgan go’shtimiz bor. O‘g‘ling kelgan kuni so‘rayman, deb ko‘nglimdan o‘tkazib qo‘yibman. (Sh.)*

III bob bo‘yicha xulosa

Bo‘g‘in bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasidir. Masalan: *ona(o-na), ota(o-ta), bola(bo-la)* kabi. Bo‘g‘in nutq oqimining tovushdan katta, so‘zdan kichik (ba’zan bir so‘zga teng) segment birligidir. Fonologik nuqtai nazardan bo‘g‘in *sillabema* deyiladi, uni o‘rganadigan soha esa sillabika deb nomlanadi. Bo‘g‘in unlisiz tuzilmaydi, shuning uchun unli tovush bo‘g‘inning markazi hisoblanadi. U undoshlarni o‘ziga tortib, bir havo zarbi bilan aytiladigan fonetik bo‘lakni (bo‘g‘inni) hosil

qiladi. Undoshlar o'zicha bo'g'in yasamaydi (sonorlar bundan mustasno). Ular unlidan oldin kelganda kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi; *kitob* so'zidagi "ki-" bo'g'ini boshida kelgan "k" undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelganda, kuchli boshlanadi, so'ng kuchsizlanib tugaydi: *kitob* so'zidagi "-tob" bo'g'ini oxirida kelgan "b" undoshi shunday. Ba'zan ikki bo'g'in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: *muddat* (*mud-dat*) kabi. Bu hodisa geminatsiya sanaladi. Bunda ikkala "dd" bir tovushdek talaffuz etiladi, binobarin, kuchli boshlanib, kuchli tugaydi, oralig'ida esa bir oz pasayish kuzatiladi. Bular *ikki balandlikka ega undoshlar* sanaladi.

Demak, bo'g'in tuzilishida undoshlar kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakterida bo'ladi. Shunga ko'ra bo'g'in uch qismga bo'linadi; 1) bo'g'in boshi- bo'g'in yasovchi tovushning (unlining) balandligigacha bo'lgan qism; 2) bo'g'in markazi (bo'g'in balandligi); 3) bo'g'in markazidan keyingi qism (bo'g'in balandligidan so'nggi qism).

UMUMIY XULOSALAR

Eng avval shuni aytish lozimki, soʻz tilning eng muhim birligi sanaladi, Aslida, tilning fonema, morfema kabi birliklari soʻzning ishtirokisiz yashay olmaydi. Shu bois tilshunoslik fani endigina asoslana boshlagan antik davrlardan boshlab olimlarimiz soʻz xususida mulohaza yuritib kelmoqdalar. Lekin, shunday boʻlishiga qaramay, soʻz xususida mavjud izohtalab masalalar koʻpaysa koʻpaydiki, kamaygani yoʻq.

Bu masalalarning barchasi soʻzning maʼno jihatlarini bilan bogʻlanadi. Maʼno esa, oʻz navbatida, soʻz uchun libosdir va u soʻz isteʼmolda qanchalik koʻp qoʻllanilsa, shunchalik taraqqiy etib boradi. Buning isbotini barcha tillar, shu jumladan ingliz tili va oʻzbek tili materialida ham bemalol kuzata olamiz.

Soʻz maʼnosining taraqqiyoti koʻp hollarda etimologiya bilan bogʻliq boʻladi va u orqali izohlanishi mumkin. Bunga hozirgi oʻzbek tilida koʻmakchi vazifasida qoʻllanilayotgan bilan soʻzi misol boʻlishi mumkin. Har bir mustaqil soʻz nominativ maʼno anglatishi aytib oʻtilgan edi. Biroq nominativ maʼno tilning evolyutsion taraqqiyoti natijasida baʼzan unutilishi ham mumkin. Nominativ maʼnosi unutilgan soʻz juda tor kontekstli boʻlib, doim maʼlum bir soʻz qurshovida keladi. Natijada bu soʻzning leksik maʼnosi shu kontekst doirasidagina izohlanadigan boʻlib qoladi. Bunday hodisa har qanday tilda ham kuzatilishi mumkin.

Tabiatdagi va jamiyatdagi oʻzgarishlar paydo boʻlayotgan yangi – yangi narsalar, hodisalar tilda oʻz ifodasi, oʻz atamasi boʻlishini talab qiladi. Shunga koʻra tilning leksik boyligi oʻsib, rivojlanib boradi. Bunday vaziyatda ikki hodisani kuzatish mumkin: 1. Yangi paydo boʻlgan narsani yoki hodisani nomlash, atash talabi bilan yangi soʻz tugʻiladi. 2. Mazkur talab asosida yangi maʼno yuzaga keladi.

Soʻz maʼnosi birinchi galda tovush, aksariyat paytlarda esa tovushlar majmuasi bilan ifodalanadi. Shuning uchun mashhur tilshunos olim F.de Sossyur soʻzda ikki jihat mavjudligini – ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlar mavjud boʻlishini ilmiy asoslab bergan edi.

Soʻzning ifodalovchi jihati tovushlarni taqozo etadi. Ifodalanuvchi jihati esa *maʼno* tushunchasi bilan uzviy bogʻlanadi. Lekin bu bilan har bir maʼno uchun alohida tovushlar majmuasi berkitiladi, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunki omonim soʻzlarda maʼlum bir tovushlar kompleksi turli maʼnolarning ifodalovchisi boʻlishi ham mumkin. Shuning uchun maʼnoning maʼlum bir tovushlar kompleksiga berkitilishini nisbiy tushunmoq lozim.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, u orqali biz ingliz va oʻzbek tillarida soʻz yasaliishi, uning morfemik strukturasi, affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, qisqartirish va bohsqa shu kabi jarayonlarni qiyoslab oʻrganishga harakat qildik.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning oldiga qoʻyilgan maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati kabi masalalar yoritildi.

Dissertatsiya ishning birinchi bobi “Soʻz semantik strukturasi oʻzgarishi” deb nomlangan boʻlib, unda soʻz strukturasi lingvistik tabiati tahlili, semantik strukturaning leksik tahlili, soʻz maʼnosining taraqqiyoti tahlili misollar yordamida ifodalab berilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Ingliz va oʻzbek tillarida soʻz strukturasi sistem tahlili” deb nomlangan boʻlib, unda ingliz va oʻzbek tillarida soʻz va uning strukturasi va ularning shakllanishini misollar yordamida ifodalab berildi.

Ishning uchinchi bobi “Ingliz va oʻzbek tillarida soʻz strukturasi oʻzak va affiks morfemlar asosidagi sistem tahlilida boʻgʻinning ahamiyati” deb nomlangan. Unda ingliz va oʻzbek tillarida soʻzning semantik strukturasi oʻzgarishi yoritilgan boʻlib, bu sohada bir qator tilshunos olimlar fikrlariga munosabat bildirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz va oʻzbek tillarida mahsuldor soʻz yasovchi vositalarning qiyosiy tahlili taqqoslanayotgan tillar anchagina tipologik oʻxshash xususiyatlarga ega ekanliklarini koʻrsatdi. Shu bilan birgalikda, ushbu tillarning oʻziga xos xususiyatlari, soʻz yasovchi vositalari

mahsuldorligidagi ba'zi farqlar, yasalgan so'zlarning tuzilishi jihatidan farqlari, so'z yasovchi vositalarning son jihatdan farqlari mavjud.

Ammo ingliz tilini o'zbek tiliga qarama-qarshi qilib qo'yadigan farqli belgilarning ko'pligiga qaramasdan tipologik o'xshash xususiyatlarning mavjudligi ushbu tillarning so'z yasash sohasida qandaydir yaqinlik borligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov asarlari ro'yxati:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2015. – 304 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008. –176b.

1.Prezident Qarorlari:

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: SHarq, 1997. –34 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. Toshkent. – 10.12.2012.

3.Ilmiy adabiyotlar ro'yxati:

5. Hojiyev.A.O'zbek tili so'z yasalishi tizimi.–T.: “O'qituvchi”, 2007.–167b.
6. Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: ”Talqin”, 2005.– 272b.
7. Антрушина Г.Б., Афаносивна О.В., Морозова Н.Н. Лексикология английского языка.– М.: Drofa, 2004.–187р.
8. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. –144с.
9. Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Тил Қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси.–Т.: “Фан”,2007. –273б.
10. Горшунов. Ю. В. Типы смысловых отношений между компонентами сложносокращенных слов (на материале английского языка). – СПб, 2004.
11. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри, -Т.: 1987.-425б.
12. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент, 2008. –77 б.

13. Кондаков Н.И. Логический словарь-справочник.-М.,1975.-135с.
14. Кубрякова Е. Теория номинации и словообразование// Языковая номинация. –М.,1977.-159с.
15. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Н., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. –Т.: ЎзМУ, 2004.-183 б.
16. Литвин Ф.А. Многозначность слова в языке и речи. – М., 1984.-168с.
17. М.Кошғарий Девони луғатит турк–1-том, 66-67 б.
18. Маковский М.М. Проблемы лингвистической комбинаторики // Вопросы языкознания, 1985. №3. – С. 43.
19. Маҳмудов А. Ўзбек адабий тилида сўзларнинг фонетик структураси // "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1984, 2-сон, 30-34-бетлар.
20. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тили назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995.-228 б.
21. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, 1975. – 185 б.
22. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-жилд. –Т.: ЎзМУ, 2004.–285б.
23. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-жилд. –Т.: ЎзМУ, 2004. – 285 б.
24. Неъматов Ҳ., Расулов И. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент, 1995.-164б.
25. Нурмонов А. Сўз бирикмаси. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995. 229 б.
26. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1956.–448 с.
27. Потебня А.А. Фикр ва тил -М., 1862.–235с.
28. Расулов Р. Умумий тилшунослик.–Тошкент 2010.-230 б.
29. Рустамов А. Сўз хусусида сўз.–Т.:Ёш гвардия, 1987.-23 б.

30. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика.–Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”, 2008.–300 б.
31. Силман Т.И. Проблемы синтаксической стилистики. –Л., 1967.–112с.
32. Турниёзов Н., Хайруллаев Х. Синтактик муносабат ва синтактик структуралар//Структур синтактик асослари.–Тошкент, 2009-.165 б.
33. Храковский В.С. Трансформация и деривация// Проблемы структурной лингвистики-1972. –М., 1973.-243с.
34. Шодиев Ф. Бир бўғинли сўзлар ва уларнинг ҳосилалари талқини //"Ўзбек тили ва адабиёти" журналы, 1998, 3-сон, 70-73-б.

4.Xorijiy adabiyotlar ro'yxati:

35. Arnold I.V. The English Word – Moscow: Высшая школа, 1986. – 295p.
36. Barbara M.H. A History of English. – London: Methuan, 2007. – 250p.
37. Buranov J. B., Muminov A. A. A practical course in English Lexicology. – Т.:O'qituvchi,1990. – 168p.
38. Ginzburg R. S. , S. S. Khidekel,. G. Y. Knyazeva, A. A. Sankin. A course in modern English. – М.: “Высшая школа”, 1979. –269p.
39. Marchand H. The categories and types of present-day English word– formation.– Munchen: Verlag 1969. –236p.
40. Muminov O. Lexicology of the English language. –Т.: Mehridaryo, 2006. – 161p.

5. Foydalanilgan lug'atlar:

41. Alen R.The Oxford Illustrated English Dictionary. – М.: Astrel, 2003. 553p.
42. Hokins D. M. Oxford dictionary of the English language. – М.: Astrel, 2002. –828p.

43. Thompson D., Coulson J. The Pocket Oxford Russian Dictionary. – M.: Ves Mir, 2002.–623p.
44. Musaev K. M., Qudratov M. Sh. Inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'at. –T.: "Fan", 2001. -776 b.
45. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. –Toshkent: O'zbekiston milliy enciklopediyasi, 2007.

6. Internet resurslari:

46. <http://uz.enlizza.com/ingliz-tilida-old-va-qoshimchalar>
47. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
48. <http://www.istedod.uz>
49. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>
50. <http://www.oxforddictionaries.com>
51. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
52. <http://www.library.ziyonet.uz>